2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 19 (1080), 2024-yil 26-yanvar, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

# O‘ZARO MANFAATLI MUNOSABATLAR IKKI TOMONLAMA SAVDO-IQTISODIY VA INVESTITSIYAVIY SHERIKLIKNI YANADA KENGAYTIRADI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan 23-25-yanvar kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.**






Davlatimiz rahbari 25-yanvar kuni Shenchjen shahrida Guandun muzofoti partiya qo‘mitasi kotibi Xuan Kunmin bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Guandun — Xitoyning eng rivojlangan hududlaridan bo‘lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizini shakllantiradi va bu ko‘rsatkich bo‘yicha yetakchilik qiladi. Muzofot O‘zbekiston hududlarining eng yirik iqtisodiy sherigidir.

Uchrashuvda muzofot bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni, eng avvalo, yuqori texnologik tarmoqlarda kengaytirishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Kuni kecha XXR Raisi Si Szinpin bilan sermahsul muzokaralar o‘tkazilgani, ular doirasida hududlararo aloqalarni yanada kengaytirish masalasi qo‘llab-quvvatlangani mamnuniyat bilan qayd etildi.



Sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, shu jumladan, Guandunning yetakchi kompaniyalari uchun mamlakatimiz hududlarida ixtisoslashtirilgan yuqori texnologik parklar tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

24-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi uchrashuvda tashkil etilishi kelishib olingan O‘zbekiston va Xitoy hududlari kengashi faoliyatida Guandun muhim o‘rni tutishi ta’kidlandi.

Muzofot hududida joylashgan “Huawei”, “BYD”, “ZTE” va boshqa ilg‘or kompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirishdan O‘zbekiston manfaatdorligi qayd etildi.

Gumanitar aloqalar va ishbilarmonlik almashinuvlarini faollashtirish maqsadida IT ta’lim sohasida hamkorlik qilish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish masalalari ko‘rib chiqildi.

Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifining ishbilarmonlik tadbirlari davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Guandun muzofoti partiya qo‘mitasi kotibi Xuan Kunmin bilan birgalikda Shenchjen shahrida o‘tayotgan qo‘shma Investitsiya forumida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari o‘tgan yil may oyida Xitoyga davlat tashrifi doirasida ham ushbu mamlakat ishbilarmon, moliya va investitsiya doiralarining yetakchi vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazgan edi. O‘shanda erishilgan muhim kelishuvlar ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklikni yanada kengaytirdi.

Bugungi investitsiya forumi samarali muloqotning davomi bo‘lib, ikki mamlakat idoralari va hududlari rahbarlarini, Xitoy yirik biznesining 600 nafardan ziyod vakilini to‘pladi. Xitoyning Milliy neft-gaz korporatsiyasi, Milliy kimyo-injiniring kompaniyasi, Aerokosmik ilmiy-sanoat korporatsiyasi, “China Energy”, “Gezhouba Group”, “China CAMC Engineering”, “Huawei Technologies”, “SANY Renewable Energy”, “BYD Auto Industry”, “Xinjiang Hualing Group”, “ZTE”, “TBEA”, “Universal Energy” kompaniyalari, Xitoy taraqqiyot banki, Davlat taraqqiyot banki, Eksport-import banki shular jumlasidan.

Davlatimiz rahbari forumni ochar ekan, barcha ishtirokchilarni samimiy qutladi va tadbir haqli ravishda Xitoyning innovatsiyalar poytaxti hisoblangan Shenchjen shahrida o‘tkazilayotganida o‘ziga xos ramziy ma’no mujassam ekanini ta’kidladi.

— Bugun mamlakatlarimiz o‘rtasidagi keng qamrovli va o‘zaro manfaatli munosabatlar, birinchi navbatda, iqtisodiy hamkorlik aloqalaridan kuch oladi, — dedi Prezident.

Kuni kecha XXR Raisi Si Szinpin bilan samarali muzokaralar o‘tkazilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Erishilgan natijalardan biri mamlakatlarimiz biznes vakillari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularga qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha kelishuvlar bo‘ldi.

Qabul qilingan tarixiy hujjat — O‘zbekiston — Xitoy munosabatlarini barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik darajasiga olib chiqadigan davlat rahbarlarining Qo‘shma bayonoti ham bunga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Prezidenti ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal sur’atda o‘sib, keng ko‘lam kasb etayotganiga alohida e’tibor qaratdi.

Xususan, keyingi yillarda o‘zaro savdo hajmi ikki barobar ko‘payib, 2023-yilda rekord ko‘rsatkich — 14 milliard dollarga yetdi. Davlatimiz rahbari yaqin yillarda, shu jumladan, qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlarini o‘zaro yetkazib berishni kengaytirish, ayrim turdagi mahsulotlar bo‘yicha imtiyozli savdoni yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida yangi hukumatlararo bitim tuzish orqali bu ko‘rsatkichni 20 milliard dollarga yetkazish uchun imkoniyat borligini yana bir bor qayd etdi.

Xitoyning O‘zbekistonga kiritgan umumiy investitsiyalari hajmi 14 milliard dollardan oshdi. Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni uch barobar ko‘paydi.

Davlatimiz rahbari yaqinda Urumchida o‘tgan hududlararo forum va sanoat mahsulotlari ko‘rgazmasida muhim investitsiya kelishuvlari imzolanganini yuqori baholadi.

*Davomi 2-betda*

## Муносабат

## O‘ZBEKISTON – XITOY: HAMKORLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

**Bugun shiddatli tus olayotgan geosiyosiy jarayonlar har bir davlatdan tashqi siyosiy va iqtisodiy maydonda faol bo‘lishni talab etmoqda. Shu ma’noda, yangi O‘zbekiston xalqaro munosabatlarning eng faol va tashabbuskor, teng huquqli subyekti sifatida e’tirof etilmoqda. Buning asosiy sababi — Prezidentimizning jonajon xalqimiz va yurtimiz manfaatini ko‘zlagan holda uzoqni o‘ylab, asoslantirilgan tahlillarga tayanib yuritayotgan ochiq, pragmatik, do‘stona ruhdagi faol va to‘g‘ri tashqi siyosati hisoblanadi.**

*Davomi 3-betda*



## BUGUNNING GAPI

## TOG‘-KON SANOATI

### Sohada tajriba almashish ulkan natijalar garovi

**Xitoy foydali qazilma konlariga boy mamlakatlar orasida yetakchilardan. Xususan, dunyoda kamyob metallar mineral xomashyo bazasining kattagina qismi aynan Chin yurtida joylashgan.**

*Davomi 5-betda*

## Islohot odimlari

## ISHDA HAM, UYDA HAM TEJAMKORLIK

### Unga qanday erishiladi?

**Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q, deganlaridek, qorong‘i tunimizni yorug‘ qilib, ko‘plab ehtiyojlarni qondirishda foydalanilayotgan elektr manbaini hamisha tejab ishlatavermaymiz. Zero, u xonadonimizga yetib kelgunga qadar qancha mablag‘ va ishchi kuchi sarflanayotganini hamma ham bilavermasa kerak.**

*Davomi 4-betda*



www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

# O‘ZARO MANFAATLI MUNOSABATLAR IKKI TOMONLAMA SAVDO-IQTISODIY VA INVESTITSIYAVIY SHERIKLIKNI YANADA KENGAYTIRADI

**Boshlanishi 1-betda**

O‘zbekiston tomoni ushbu ishbilarmonlik platformasiga tizimli tus berish va navbatdagi forumni yurtimizda o‘tkazishga tayyorligi bildirildi. Shuningdek, davlatimiz rahbari doimiy faoliyat yuritadigan ikki mamlakat hududlari kengashini tashkil etish bo‘yicha rejalarni olqishladi.

Ma’lumki, Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlarini joriy qilish bo‘yicha tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Yuqori texnologik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tuzilgan. Shu oydan boshlab “sanoat ipotekasi” ishga tushirilmoqda, bunda yer va ishlab chiqarish maydonlari “tayyor biznes” shaklida investorlarga beriladi.

Yirik banklar, sanoat va infratuzilma obyektlarini xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy qilishga katta e’tibor qaratilayotgani ta’kidlandi.

Birgalikdagi sa’y-harakatlarni yangi loyiha va tashabbuslarni ilgari surishga safarbar etish muhimligini qayd etib, davlatimiz rahbari kelgusi hamkorlikning ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi.

Bular — infratuzilmani rivojlantirish loyihalariga Xitoy moliya institutlari mablag‘larini jalb qilishning soddalashtirilgan tartibini joriy qilgan holda ushbu mamlakat kompaniyalari bilan sheriklikni kengaytirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida, shu jumladan, strategik xomashyoni chuqur qayta ishlashda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligini barqaror yuritishda Xitoyning ilg‘or texnologiyalarini jalb qilish hamda yerlarni qayta tiklash va tuzga chidamli o‘simliklarni ekish bo‘yicha ilmiy yondashuvlarni joriy qilish.

“Yashil” energetikada strategik sheriklikni yanada ilgari surish va Xitoy kompaniyalarining xususiylashtirish dasturida ishtirok etishi ham muhim yo‘nalishlar sifatida qayd etildi.

Shu munosabat bilan investitsiya loyihalari portfelini, infratuzilma va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturlarini kengaytirish bo‘yicha xitoylik sheriklar bilan kelishuvlarga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Shuningdek, tashrif davomida Xitoyning yetakchi banklari tomonidan loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish, Eksport-import banki vakolatxonasini ochish va Ipak yo‘li fondi bilan birgalikda yangi Investitsiya platformasini yaratish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar xitoylik hamkorlarning O‘zbekistondagi muvaffaqiyatli faoliyatiga kuchli sur’at bag‘ishlashi ta’kidlandi.

— Yana bir yangilik. Har bir xitoylik hamkorga loyihalar boshidan oxirigacha hamrohlik qiluvchi investitsiya menejeri tayinlanadi. Ular kompaniyalaringiz loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishida yangi imkoniyatlar yaratishiga qat’iy ishonamiz, — dedi Prezident.

Guandun muzofoti partiya qo‘mitasi kotibi Xuan Kunmin ham forum ishtirokchilariga murojaat qildi. Prezidentimiz olib borayotgan ortga qaytmas islohotlar siyosatini to‘liq qo‘llab-quvvatlashini bildirib, O‘zbekistonda ochilayotgan katta imkoniyatlarni qayd etdi hamda Xitoy biznesini mamlakatimizda o‘zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirishda yanada faolroq ishtirok etishga chaqirdi.

Biznes-forum yakunida energetika, neft-gaz, tog‘-kon, elektrotexnika, yengil sanoat, mashinasozlik, infratuzilmani rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, transport va logistika sohalarida loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha hujjatlarning katta to‘plami imzolandi.

“Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, har bir loyihaga mas’ul menejerlar biriktiriladi.

Yakunda O‘zbekiston Prezidenti ushbu Guandun investitsiya forumini har yili tashkil etish tashabbusini ilgari surib, uning navbatdagi uchrashuvini kelgusi yilda Samarqand shahrida o‘tkazishni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari Shenchjen shahridagi tadbirlar doirasida Ipak yo‘li fondi raisi Chju Szyun bilan uchrashuv o‘tkazdi. Fond 2014-yilda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin tashabbusi bilan “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi doirasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan.

Uchrashuvda sanoat kooperatsiyasi va infratuzilmani rivojlantirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun fond bilan birgalikda yaratilgan investitsiya platformasi imkoniyatlarini faol ishga solish orqali istiqbolli loyihalarni amalga oshirish borasidagi rejalar ko‘rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev “SANY” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Syan Venboni qabul qildi.

“SANY” shamol turbinalarini ishlab chiqaruvchi dunyoning yetakchi 10 ta kompaniyasi qatoriga kiradi. Shamol energetikasi qurilmalarini ishlab chiqarish va sotishga, shamol elektr stansiyalarini loyihalashtirish, qurish, ishlatish va boshqarishga ixtisoslashgan.

Uchrashuvda kompaniyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasida shamol elektr stansiyasini barpo etish, shamol turbinalarining butlovchi qismlarini, qurilish va og‘ir yuk texnikasini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish kabi loyihalarni amalga oshirish rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga erishilgan kelishuvlar amalga oshirilishini jadallashtirish bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishga topshiriq berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shenchjen shahriga tashrifi doirasidagi navbatdagi uchrashuv “CSG” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Men Chjenpin bilan bo‘ldi.

Xitoyning elektr tarmoqlari sohasidagi yetakchi kompaniyalaridan biri “CSG” tarmoqlarni qurish va boshqarishga ixtisoslashgan. Kompaniyaning bozor kapitallashuvi 60 milliard dollarni tashkil etadi.

Uchrashuvda istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi. Xitoy kompaniyasi ishtirokida loyihalashtirish va injiniring bo‘yicha zamonaviy tizimlarni, energetik xavfsizlikni ta’minlash va energiya tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish bo‘yicha yuksak standartlarni joriy qilishga alohida e’tibor qaratildi.

Davlat tashrifining ishbilarmonlik dasturi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shenchjen shahrida Xitoyning yetakchi “BYD” kompaniyasi bosh qarorgohi va texnologiyalar markaziga tashrif buyurdi.

Ushbu kompaniya zamonaviy innovatsion avtomobillar va yangi avlod akkumulyator batareyalarini ishlab chiqarish sohasida global peshqadamdir.

Tashrif chog‘ida kompaniya yutuqlariga bag‘ishlangan ko‘rgazma, avtomobillar va boshqa turdagi texnikalarning ishlab chiqarilayotgan va istiqbolli modellari, kompaniyaning yangi texnologiyalari va ilg‘or ishlanmalari namoyishi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari kompaniya prezidenti Van Chuanfu bilan birga Jizzax viloyatida yiliga 50 ming dona gibrid va elektr avtomobillarni yig‘ish bo‘yicha loyihani ishga tushirishga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi.

Prezidentimiz yaqin istiqbolda bozordagi talabdan kelib chiqib, modellar qatorini kengaytirish va ishlab chiqarish quvvatini yiliga 300 ming donagacha oshirish zarurligini ko‘rsatib o‘tdi.

Shuningdek, kompaniyaning mamlakatimizda “BYD” elektr avtobuslarini yig‘ishni yo‘lga qo‘yish, ehtiyot qismlarini mahalliylashtirish va muhandislik-servis markazlarini tashkil etish borasidagi rejalari qo‘llab-quvvatlandi.

Tashrif chog‘ida kompaniya O‘zbekistonga 10 minginchi avtomobilini yetkazib berganining ramzi sifatida davlatimiz rahbariga YANGWANG U8 avtomobili hadya qilindi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi yakunlandi.

**O‘zA**

# O‘ZBEKISTON VA XITOY YETAKCHILARINING SIYOSIY IRODASI VA BIRGALIKDAGI SA’Y-HARAKATLARI

## ikki tomonlama munosabatlarni barcha sohada yuqori bosqichga olib chiqdi

**O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga uch kunlik davlat tashrifi juda mazmunli va samarali kechdi. Xitoy yetakchisi Si Szinpin, mamlakat rahbariyati a’zolari, moliya institutlari, fondlar va ishbilarmon doiralar vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuvlar hamda ularning natijasida erishilgan kelishuvlar, xalqaro ekspertlarning fikricha, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar faollashuvida yangi bosqich boshlanganidan dalolat beradi. Tahlilchilarning aytishicha, ushbu jarayon Xitoyning Markaziy Osiyo mintaqasi va xalqaro birlashmalar bilan o‘zaro hamkorligiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.**

BIZ VA DUNYO



**Xusrav Noziriy,**
**Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) bosh kotibi:**

— Tashrif doirasidagi tadbirlarning boy va mazmunli dasturi ikki davlat ko‘p qirrali strategik sheriklikni yanada mustahkamlash va kengaytirishdan manfaatdor ekanidan dalolatdir.

Ayniqsa, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning yuqori sur’atlari, shuningdek, rasmiy Pekinning O‘zbekiston bilan IHTning asosiy davlati sifatida ko‘p tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashdan manfaatdorligi e’tiborga molik. Xitoy Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo mamlakatlarning asosiy savdo sherigi hisoblanadi.

O‘zbekiston Prezidentining Xitoyning yetakchi kompaniyalari va bank-moliya institutlari rahbarlari bilan o‘tkazgan uchrashuvlari ikki tomonlama munosabatlarda ulkan salohiyat va ishbilarmonlik aloqalarini rivojlantirish, o‘zaro sarmoyalarni faollashtirish va savdo hajmini oshirish uchun istiqbolli imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan, Xitoy kompaniyalarining yuqori texnologiyalar, elektrotexnika, sanoat, infratuzilma va energetika sohalaridagi loyihalarni amalga oshirishdagi ishtiroki O‘zbekistonning yanada rivojlanishiga xizmat qilishini ta’kidlamoqchiman.

O‘zbekiston Prezidentining Xitoyga davlat tashrifi ikki va ko‘p tomonlama sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga, uni mamlakatlar va mintaqalar farovonligi yo‘lida yangi amaliy tashabbus hamda maqsadlar bilan to‘ldirishga xizmat qiladi.

**Yakopo Pepe,**
**Fan va siyosat fondi yetakchi eksperti (Germaniya):**



— Xitoy bilan yaxshi munosabatlar butun Markaziy Osiyo mintaqasi kabi O‘zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega. Xitoy savdo bozori, texnologiya va sarmoya manbai, shuningdek, muhim tashqi siyosat hamkori sifatida rol o‘ynaydi.

Geografik yaqinlik va tobora kengayib borayotgan infratuzilmaviy o‘zaro bog‘liqlik Xitoyning O‘zbekistonga, jumladan, energetika, sanoat, qishloq xo‘jaligi va logistika kabi sohalarga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Pekinda yetakchilar bu ko‘rsatkichni yaqin kelajakda 20 milliard dollarga yetkazish imkoniyati mavjudligi borasida fikr bildirdi. Shuningdek, Xitoyning O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan sarmoyalari hajmi bir necha barobar ortdi, qo‘shma korxonalar soni ko‘paymoqda va ikki mamlakat hududlari o‘rtasidagi hamkorlik ham faollashmoqda.

Muzokaralarda tomonlar “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida Transkontinental transport va tranzit ko‘prigining muhim tarkibiy qismiga aylanishi maqsad qilingan “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishini erta boshlash muhimligini ta’kidladi.

Germaniya, albatta, O‘zbekiston Prezidentining nafaqat qadimgi Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab, balki Yevropa va Osiyo xalqlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash va kengaytirishga qaratilgan transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish tashabbuslarini olqishlaydi.

Germaniya va Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonni mutanosib tashqi siyosat yuritish yo‘lida qo‘llab-quvvatlashga tayyor. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishni mamlakatingizga va butun Markaziy Osiyoga nisbatan o‘z siyosatini faollashtirish uchun rag‘bat, deb biladi.

**Stanislav Pritchin,**
**Rossiya Fanlar akademiyasining E.M.Primakov nomidagi Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar instituti katta ilmiy xodimi:**

— O‘zbekiston Prezidentining Xitoyga davlat tashrifi ikki mamlakat o‘rtasidagi o‘zaro savdo, aloqalar va umuman, o‘zaro hamkorlik jadalligi ancha tizimli oshib borayotgan bir sharoitda o‘tdi.

Bu tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy aloqalarni imkon qadar diversifikatsiya qilishga hamda o‘zaro savdoni faollashtirish va sarmoyalarni jalb etishga intilayotgan O‘zbekiston manfaatlarini ifodalaydi. Shu bois, Xitoy iqtisodiyotining ko‘lami va jahon iqtisodiyotida yetakchilik qilish istiqbollarini nazarda tutsak, ushbu davlat bilan hamkorlik eng ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Oliy darajadagi intensiv aloqalar muntazam ravishda kechmoqda, bu esa Xitoyning butun Markaziy Osiyo mintaqasiga qiziqishi va strategik yondashuvini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha rejalarini hisobga olgan holda, ushbu jabha mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatida eng istiqbolli yo‘nalishlardan biridir.

**Maks Sey,**
**Malayziyaning “Kingsley Strategic Institute” direktori:**

— O‘zbekiston — Xitoy munosabatlarining bugungi holati an’anaviy tarzda yuksak ishonch darajasi bilan ajralib turadi. Oliy darajadagi muntazam siyosiy muloqot va mamlakatlar o‘rtasida har tomonlama strategik sheriklik darajasiga erishilgani bunga yorqin misol.

O‘zbekiston Prezidentining Xitoyga davlat tashrifi yakunlari bo‘yicha savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport-logistika, ilmiy-texnikaviy va mintaqalararo hamkorlik sohalarida mustahkam hujjatlar to‘plami imzolangani quvonarli.

Xususan, investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha moliyaviy vositalarni kengaytirish, Toshkent shahrida Xitoy Eksimbankining Markaziy Osiyo bo‘yicha hududiy vakolatxonasini ochish va “Havo ipak yo‘li” loyihasini birgalikda barpo etishga oid kelishuvlar alohida e’tiborga loyiq.

Shubhasiz, tashrif davomida erishilgan kelishuvlarning hayotga tatbiq etilishi ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo‘lida iqtisodiy o‘sishni yanada oshirishga xizmat qiladi.

> **O‘zbekiston va Xitoy rahbarlarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa’y-harakatlari tufayli ikki tomonlama munosabatlar barcha soha hamda yo‘nalishlarda misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarilgani menda katta taassurot qoldirdi. O‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos ko‘p bosqichli tizimi, jumladan, hukumatlararo qo‘mita, parlamentlararo guruh, tashqi siyosat idoralari rahbarlari darajasidagi strategik muloqot, faol gumanitar va mintaqalararo almashinuv kabi mexanizmlar shakllantirildi.**

**Ahmad Tohir,**
**Misrning “Hivor” siyosiy-axborot tadqiqotlari markazi direktori:**



— Men xalqaro masalalar bo‘yicha mutaxassis sifatida O‘zbekistonning, ayniqsa, keyingi yetti yildagi taraqqiyotini diqqat bilan kuzatib boryapman.

O‘zbekiston va Xitoy rahbarlarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa’y-harakatlari tufayli ikki tomonlama munosabatlar barcha soha hamda yo‘nalishlarda misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarilgani menda katta taassurot qoldirdi. O‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos ko‘p bosqichli tizimi, jumladan, hukumatlararo qo‘mita, parlamentlararo guruh, tashqi siyosat idoralari rahbarlari darajasidagi strategik muloqot, faol gumanitar va mintaqalararo almashinuv kabi mexanizmlar shakllantirildi.

Xitoyning “Jenmin jibao” gazetasida chop etilgan “O‘zbekiston — Xitoy: ming yilliklarni qamrab olgan do‘stlik va hamkorlik” sarlavhali maqolani katta qiziqish bilan o‘qib chiqdim. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston — Xitoy munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha o‘z qarashlarini bayon qilgan. O‘zbekiston yetakchisi ushbu maqolada ikki davlat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning muhim vazifalarini amalga oshirish bo‘yicha yangi uzoq muddatli kun tartibi va dasturlarni ishlab chiqishni taklif qilganini alohida ta’kidlamoqchiman.

O‘ylaymanki, Xitoy bilan ko‘p qirrali munosabatlarni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

O‘zbekiston yetakchisining davlat tashrifi O‘zbekiston — Xitoy hamkorligini yanada kengaytirish va mustahkamlashga turtki bo‘lishiga ishonaman.

**Sanjiv Gupta,**
**“Kusum” kompaniyalar guruhi direktori (Hindiston):**



— O‘zbekiston Prezidentining xorijiy davlatlarga safarlari yuqori amaliy natijalari bilan ajralib turadi. Xitoyga davlat tashrifi ham ikki mamlakat o‘rtasida erishilgan qator o‘ta muhim kelishuvlar bilan e’tiborga sazovor bo‘ldi.

Chorshanba kuni Pekin shahrida imzolangan hujjatlar O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ularda hamkorlikning har bir jabhasi inobatga olingan. Masalan, transport kommunikatsiyalari sohasi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar mavjud transport koridorlarini yanada rivojlantirish va mukammallashtirishni talab etmoqda. Shu ma’noda, Xitoy — Markaziy Osiyo — Yevropa temir yo‘l ekspresslari bo‘yicha hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi bayonnoma va “Havo ipak yo‘li”ni birgalikda barpo etish to‘g‘risidagi kelishuv amaliy ahamiyati bilan ajralib turibdi. Ushbu g‘oya va loyihalarning hayotga tatbiq etilishi Sharq va G‘arb mamlakatlari o‘rtasidagi transport aloqalarini mazmunan boyitadi, O‘zbekistonning ushbu kommunikatsiya zanjiridagi o‘rni va ahamiyatini yuksaltiradi.

**“Dunyo” AA**

**Xitoylik do‘stlarimiz yurtimizda tabiiy quyosh nurida yetishtirilgan bog‘dorchilik mahsulotlari mazasini maqtamoqda, o‘zbek xonadonida mehmon bo‘lganlari mehmondorchiligimiz, milliy an’ana va qadriyatlarimizga tan beryapti, yana jannatmonand yurtimizga kelish orzusi bilan yashamoqda.**



**O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi do‘stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash tarafdorimiz.**

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**



Munosabat

# O‘ZBEKISTON — XITOY: HAMKORLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARI



**Akbarshoh TESHABOYEV,**
***Davlat va huquq instituti bo‘lim boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, huquqshunos-tahlilchi***

> **Yosh tahlilchi olim sifatida aytishni istardimki, O‘zbekiston va Xitoy xalqini mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni ta’minlash borasidagi mushtarak intilishlar, zamonlar osha sayqallanib kelayotgan, sinovlarda toblangan do‘stlik aloqalari birlashtirib turadi. Zero, ushbu do‘stlik aloqalari ikki xalqning kelgusi asrlarda ham baxtli bo‘lishini kafolatlashi shubhasiz.**

**Boshlanishi 1-betda**

Yangi O‘zbekistonning tashqi maydondagi faolligi 2024-yilning boshidanoq yangi bosqichga, yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarilayotganini ko‘rib turibmiz. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi strategik munosabatlar o‘zaro ishonchli hamkorlik, do‘stlik, faol iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy, innovatsion muloqotlar ko‘rinishida yanada mustahkamlanayotgani fikrimiz isbotidir.

Ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro strategik aloqalarning ahamiyatini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

***birinchidan,* yagona maqsad uyg‘unligi.** Yangi O‘zbekiston uchun va do‘st Xitoy davlati uchun ham, avvalo, xalqning ertasi, yurtning istiqboli, yosh avlodning kelajagi barcha narsadan ustun hisoblanadi;

***ikkinchidan,* yakdil qarash va yagona pozitsiya.** Har ikki davlat xalqaro maydonda bildirilayotgan taklif va tashabbuslar yuzasidan o‘zaro yagona pozitsiyada turibdi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Buni O‘zbekiston va Xitoy tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasida va umuman, SHHT makonida barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash, Afg‘onistonda vujudga kelgan vaziyatning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi umumiy taraqqiyot va farovonlikka erishish yo‘lidagi zaruriy, inklyuziv va ochiq platforma sifatida qo‘llab-quvvatlanayotgani misolida ko‘rish mumkin;

***uchinchidan,* strategik taraqqiyot konsepsiyalarining ustuvor yo‘nalishlaridagi o‘zaro o‘xshashlik.** Har ikki davlat uchun “tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash”, “investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish”, “kichik ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish”, “mahalliy brendlarni jahon bozoriga olib chiqish”, “yuqori salohiyatli kadrlarni tayyorlash”, “yashil ishlab chiqarish zanjirlarini joriy etish”, “iqtisodiy barqarorlikka aholi daromadlarini real tarzda oshirgan holda erishish” kabi ustuvor maqsadlar muhim hisoblanadi;

***to‘rtinchidan,* do‘stlik rishtalarining tarixiy ildizlari.** Tarixiy manbalardan ko‘rish mumkinki, qadimdan ikki buyuk diyor o‘rtasida savdo karvonlari, madaniy karvonlar, faol diplomatik munosabatlar amalga oshirilgan. Xususan, eramizdan avvalgi 126-yilda Xan sulolasining ilk elchisi Chjan Syan Farg‘ona vodiysidagi qadimiy Parkana davlatiga kelgan. Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida 1388-yil boshlarida Xitoydan kelgan elchilar haqida eslatib o‘tgan. Shuningdek, “Min sulolasining haqiqiy tarixi” nomli ilmiy tarixiy asarda 1389-1398-yillarda Xitoyga Amir Temur saltanatidan to‘qqiz marta elchi kelgani qayd etilgan. Bu kabi tarixiy faktlar O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik chuqur tarixiy ildizga egaligini isbotlaydi.

## 2024-yildagi ilk davlat tashrifi — Xitoyga!

Keyingi yillarda oliy darajadagi ishonchli muloqot va davlat rahbarlarining muntazam uchrashuvlari tufayli O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining joriy yildagi ilk davlat tashrifi Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirildi. Shu o‘rinda, “Nega aynan Xitoyga?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Buni quyidagi tarixiy, huquqiy va iqtisodiy faktlar bilan asoslash o‘rinli:

***birinchi tarixiy va huquqiy fakt:*** Xitoy davlati mamlakatimiz mustaqilligini birinchilar qatorida, 1991-yil 27-dekabrda rasmiy tan olgan davlat hisoblanadi;

***ikkinchi tarixiy va huquqiy fakt:*** Xitoy mustaqil O‘zbekiston bilan diplomatik aloqalarni o‘rnatgan ilk davlatlar qatoriga kiradi (1992-yil 2-yanvar);

***uchinchi tarixiy va huquqiy fakt:*** yangi O‘zbekiston va zamonaviy Xitoy o‘rtasidagi munosabatlar Prezidentimiz sa’y-harakatlari bilan 2022-yil 15-sentabrda har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi;

***birinchi iqtisodiy fakt:*** Xitoy birinchilardan bo‘lib, 1992-yilda O‘zbekiston bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarda eng ko‘p qulaylik yaratish tartibini joriy etgan davlat hisoblanadi;

***ikkinchi iqtisodiy fakt:*** Xitoy 2017–2023-yillarda mamlakatimizdagi turli sohalarga eng ko‘p investitsiya kiritgan davlatlardan biri. Xususan, 2017–2023-yillarda o‘zlashtirilgan Xitoy investitsiyalari hajmi 14 milliard dollarni tashkil etdi;

***uchinchi iqtisodiy fakt:*** Xitoy dunyoning eng yirik eksportchilaridan biridir;

***to‘rtinchi iqtisodiy fakt:*** Xitoy 1,5 milliarddan ziyod aholisi bilan dunyoning “eng katta iste’mol bozori”ga ega bo‘lgan yirik davlatdir. Bunday yuqori ishlab chiqarish salohiyati va iste’molchisiga ega bo‘lgan davlat bilan samarali hamkorlik qilish el-yurtimiz ravnaqi, tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilarning faoliyati kengayishi uchun birdek muhim.

Ushbu davlat tashrifi o‘ziga xos ramziy ma’noga ega hisoblanadi. Davlat tashrifining mazmunini quyidagi jihatlarda ko‘rish mumkin:

**birinchi ijobiy jihati,** ushbu davlat tashrifi, avvalo, jonajon xalqimiz va yurtimizning milliy manfaatlari ustuvorligi ruhida kechdi. Xususan, tashrif doirasida davlat rahbarlari huzurida imzolangan hujjatlar paketida nazarda tutilgan masalalar: inson resurslarini rivojlantirish, atrof-muhitni asrash, fan va texnologiyalar sohasidagi almashinuvlar, turizm va madaniy sohalardagi hamkorlikning yangi yo‘nalishlari, shuningdek, Toshkent, Samarqand viloyatlarining Xitoydagi rivojlangan hududlar: Shensi muzofoti hamda Sindao shaharlari bilan sheriklik aloqalarining o‘rnatgani yurtdoshlarimiz, yoshlar, tadbirkorlik subyektlari uchun birdek manfaatlidir;

**ikkinchi ijobiy jihati,** ikki davlat o‘rtasida misli ko‘rilmagan darajada o‘sgan iqtisodiy va investitsiya sohalarida yo‘lga qo‘yilgan ko‘p vektorli hamkorlikning uzviyligini ta’minlash va kengaytirishga xizmat qiladi. Xususan, 2023-yilda ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash 14 milliard dollarga yetgani, bugungi kunda O‘zbekistonda xitoylik sarmoyadorlar ishtirokida 2300 dan ortiq korxona faoliyat yuritayotgani fikrimiz tasdig‘idir;

**uchinchi ijobiy jihati,** O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi madaniy aloqalarning yanada rivojlanishi, xitoyliklarda o‘zbek madaniyatiga nisbatan qiziqish tobora ortishiga zamin yaratdi. Xususan, tashrif davomida Pekin shahrida O‘zbekiston madaniyati kunlari doirasida “Lazgi. Muhabbat va qalb raqsi” spektakli namoyish etilgani xitoyliklar va Xitoyda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizda o‘zbek milliy madaniyati, ma’rifatimiz, milliy san’atimizga nisbatan hurmat hissi yanada oshishiga xizmat qildi. Aytish joizki, bugungi kunda Xitoydagi o‘zbeklar soni 13 mingdan oshgani davlatlarimiz o‘rtasidagi ilmiy, innovatsion, fan va texnologiyalar, o‘zaro malaka oshirish dasturlari, bandlik sohasida qo‘shma dasturlar ijobiy samara berayotganini ko‘rsatmoqda;

**to‘rtinchi ijobiy jihati,** mamlakatimizda rivojlantirilishi zarur bo‘lgan texnik yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash, qishloq xo‘jaligi va “yashil” energetikada texnologiyalar transferini amalga oshirish, standartlashtirish, aholiga manzilli yordam ko‘rsatish kabi soha va yo‘nalishlarning taraqqiyotiga xizmat qilishi shubhasiz;

**beshinchi ijobiy jihati,** O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida samarali transmintaqaviy transport koridorini barpo etish borasidagi kelishuvlarni amaliy bosqichga ko‘chirdi.



Xususan, siyosiy muloqot davomida ikki davlat rahbarining “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida muhim hisoblangan “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish bo‘yicha amaliy ishlarni boshlashga kelishib olgani yurtimiz tadbirkorlari, ishlab chiqaruvchilari va yaqin hamkor hisoblanmish xitoylik tadbirkorlarga katta umid berdi.

## Samimiy siyosiy muloqot xalqlarimiz istiqboliga xizmat qiladi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin o‘rtasidagi samimiy muloqot ikki davlat xalqlari taqdiri, jumladan, yoshlarning ta’lim olishi, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishi, tadbirkorlar va ishbilarmonlarning faol savdo-iqtisodiy faoliyat yuritishi, yurtimiz va xitoylik olimlarning qo‘shma ilmiy va amaliy tadqiqotlarni birgalikda olib borishi uchun yangi imkoniyatlarni yaratib berdi, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Xususan, muloqot doirasida Si Szinpin tomonidan yurtimizdagi islohotlar ortga qaytmas tus olgani alohida ta’kidlanib, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi barcha darajalardagi aloqalar faollashib, tobora mustahkamlanib borayotgani e’tirof etildi.

Shu o‘rinda, ikki davlat o‘rtasidagi samarali va do‘stona aloqalarning mustahkam huquqiy asosi mavjudligini aytish joiz. Jumladan, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasida ta’kidlanishicha, 2024-yil 15-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonning Xitoy bilan aloqalarini bevosita va bilvosita huquqiy tartibga soluvchi 250 dan ziyod hujjat mavjud.

Davlatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik aloqalari bugungi kunda Hukumatlararo qo‘mita, Parlamentlararo guruh, tashqi siyosiy idoralar rahbarlari miqyosidagi Strategik muloqot, faol gumanitar va hududlararo almashinuvlar shaklida yuqori darajada amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz siyosiy muloqot doirasida 2023-yilda ushbu davlatga ikki marotaba amalga oshirilgan tashrifda bildirilgan taklif va tashabbuslarning samarali amalga oshirilganini qayd etgan holda, hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi qator takliflarni ilgari surdi. Xususan:

***birinchi taklif:*** infratuzilma, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi va “yashil” energetikada texnologiyalar transferi sohalarida hamkorlik dasturlarini tayyorlash va qabul qilish;

***ikkinchi taklif:*** investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy vositalarini kengaytirish;

***uchinchi taklif:*** xitoylik ishbilarmonlarning O‘zbekistondagi davlat korxonalari va banklarini xususiylashtirish jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlash;

***to‘rtinchi taklif:*** O‘zbekiston va Xitoy hududlari kengashini tuzish;

***beshinchi taklif:*** ta’lim va turizm sohasidagi hamkorlikni faollashtirish, o‘zaro madaniyat kunlarini o‘tkazish;

***oltinchi taklif:*** Qo‘shma Yoshlar innovatsiya forumini o‘tkazish. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, davlatimiz rahbari o‘zining xorijiy safarlaridagi nutqlarida, albatta, yoshlar masalasiga e’tibor qaratib, bu borada hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha muhim va tarixiy tashabbuslarni ilgari suradi. Bu safar ham Qo‘shma Yoshlar innovatsiya forumini o‘tkazish borasidagi tashabbusning bildirilgani fikrimiz isbotidir.

Mazkur tashabbusning ahamiyatini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

***birinchi ijobiy ahamiyati:*** forumning o‘tkazilishi o‘zbek va xitoylik yoshlar o‘rtasida samimiy muloqot yo‘lga qo‘yilishi, do‘stlik aloqalari yanada rivojlanishiga xizmat qiladi;

***ikkinchi ijobiy jihati:*** o‘zbek va xitoylik yoshlarning fan, ta’lim, innovatsiya sohalaridagi tashabbuslarini moliyalashtirish imkoniyatini yanada oshiradi;

***uchinchi ijobiy jihati:*** o‘zbek va xitoylik yoshlarning o‘zaro tajriba almashish dasturlarini yanada kengaytiradi.

Bugungi kunda O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlarida 2 mingdan ziyod talaba xitoy tilini o‘rganayotgani, 5 ta oliygohda esa xitoy tili birinchi yoki ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitilayotganini inobatga olgan holda aytish mumkinki, davlatimiz rahbarining mazkur taklifi istiqbolda Xitoyning ilm-fan, innovatsiya, ta’lim sohalaridagi ijobiy tajribasini chuqur o‘rganishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oliy darajadagi muzokaralarning yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning Qo‘shma bayonoti imzolangani, unda hamkorlikning yuqori istiqbollari bo‘yicha rejalar belgilanganini alohida ta’kidlash kerak.

Shuningdek, ikki davlat rahbarlari huzurida qariyb 15 dan ziyod huquqiy hujjatlar, xususan, atrof-muhitni muhofaza qilish, texnik-iqtisodiy hamkorlik, inson resurslarini rivojlantirish, davlat ilmiy-tadqiqot muassasalari hamkorligi to‘g‘risida 4 ta muhim soha bo‘yicha hukumatlararo bitim, xitoy tilini o‘qitish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim, 6 ta vazirlik va idoralararo hamkorlik, anglashuv bayonnomalari, “Havo ipak yo‘li”ni birgalikda barpo etish to‘g‘risida kelishuv, 2024-2026-yillarda turizm sohasidagi hamkorlik rejasi, 2 ta hududlararo sheriklik bitimi imzolanib, o‘zaro hamkorlikning qamrovi yanada kengaytirildi.

Mazkur hujjatlarda belgilangan kelishuvlarning amalga oshirilishi o‘zbek va do‘st xitoy xalqining taraqqiyoti va turmushi farovonligiga birdek xizmat qilishi shubhasiz.

## Ishbilarmon, moliya va investitsiya doiralari uchun yangi imkoniyatlar

Prezidentimizning xorijiy davlatlarga bo‘ladigan tashriflari dasturi markazidan joy oladigan masala bu — o‘sha yurtdagi ishbilarmon, moliya va investitsiya doiralari bilan bo‘ladigan uchrashuvlar, forumlar va muloqotlar hisoblanadi. Ushbu ijobiy holat:

— xorijiy tadbirkorlar, ishbilarmonlik doiralari va investorlarda yurtimizga nisbatan qiziqish ortishiga;

— mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi investitsiya va sarmoyalar oqimining tobora ortib borishiga xizmat qiladi.

Bu safar ham Prezidentimiz Xitoyga davlat tashrifi diorasida Shenchjen shahrida tashkil etilgan qo‘shma investitsiya forumida ishtirok etdi. Xitoylik tadbirkorlar, moliya va investitsiya doiralari vakillari bilan ochiq va samimiy muloqot qildi, ularni yurtimizda faoliyat yuritishga chorladi. Forumda O‘zbekiston va Xitoy davlat idoralari va hududlari rahbarlari, Xitoy yirik biznesining 600 nafardan ziyod vakili ishtirok etgani ham uning qamrovi va kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikning naqadar keng ekanini tasdiqlaydi.

Shu o‘rinda aytish joizki, davlatimiz rahbarining o‘tgan yillar davomidagi ushbu mamlakatga tashriflarida bildirgan ishonchi va yaratib bergan sharoitlari tufayli bugungi kunda mamlakatimizda Xitoy sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar soni uch barobar ko‘payib, turli sohalar ravnaqiga hissa qo‘shmoqda.

Davlatimiz rahbari nufuzli forumda ikki davlat ishbilarmonlarining faoliyati uchun muhim bo‘lgan quyidagi takliflarni bildirdi:

***birinchi taklif:*** hududlararo forum va sanoat mahsulotlari ko‘rgazmalarini tizimli ravishda o‘tkazib borish, navbatdagi shunday forumni O‘zbekistonda tashkil etish;

***ikkinchi taklif:*** O‘zbekistonda infratuzilmani rivojlantirish loyihalariga Xitoy moliya institutlari mablag‘larini jalb qilishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, ular bilan sheriklikni kengaytirish;

***uchinchi taklif:*** strategik xomashyoni chuqur qayta ishlashda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish;

***to‘rtinchi taklif:*** yurtimizda qishloq xo‘jaligining barqarorligini ta’minlash maqsadida Xitoyning ilg‘or texnologiyalarini jalb qilish, yerlarni qayta tiklash va tuzga chidamli o‘simliklarni ekish bo‘yicha ilmiy yondashuvlarini joriy qilish;

***beshinchi taklif:*** “yashil” energetikada strategik sheriklikni davom ettirish;

***oltinchi taklif:*** Investitsiya forumini har yili tashkil etish va navbatdagisini 2025-yilda Samarqand shahrida o‘tkazish borasidagi takliflar O‘zbekiston va Xitoy ishbilarmon doiralari o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy, moliyaviy hamkorlikni yangi pog‘onaga olib chiqishi shubhasiz.

Davlatimiz rahbari xitoylik iqtisodiy nufuzli kompaniya va korporatsiyalar rahbarlari bilan ham samimiy muloqot qildi. Xususan, CNPC neft-gaz korporatsiyasi raisi Day Xoulyan bilan yer osti gaz saqlash sig‘imlarini barpo etish va gaz yetkazish tizimlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy burg‘ilash texnologiyalarini joriy etish va neft-gaz tarmog‘i uchun mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, Xitoy Eksport-import banki raisi Vu Fulin bilan bankning Toshkent shahrida mintaqaviy ofisini ochish hamda transport va ijtimoiy infratuzilma, sanoat va xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha yangi istiqbolli loyihalarni shakllantirish, Ipak yo‘li fondi raisi Chju Szyun bilan sanoat kooperatsiyasi va infratuzilmani rivojlantirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, “CSG” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Men Chjenpin bilan loyihalashtirish va injiniring bo‘yicha zamonaviy tizimlarni, energetik xavfsizlikni ta’minlash va energiya tarmoqlarida yo‘qotishlarni kamaytirish bo‘yicha yuksak standartlarni ishga tushirish, “SANY” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi Syan Venboni bilan kompaniyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasida shamol elektr stansiyasini barpo etish, shamol turbinalarining butlovchi qismlari, qurilish va og‘ir yuk texnikasini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish kabi loyihalarni amalga oshirish, “BYD” kompaniya prezidenti Van Chuanfu bilan mamlakatimizda “BYD” elektr avtobuslarini yig‘ishni yo‘lga qo‘yish, ehtiyot qismlarini mahalliylashtirish va muhandislik-servis markazlarini tashkil etish masalalarida muloqot o‘tkazilgani ushbu soha va tarmoqlarni xitoy tajribasi va texnologiyalari asosida rivojlantirish imkonini beradi.

## Manfaatli hamkorlikning ijobiy ta’siri

Bugungi kunda biz Xitoyning zamonaviy elektromobillarini haydab, ular tomonidan ishlab chiqilgan gadjetlardan foydalanyapmiz. Xitoylik do‘stlarimiz yurtimizda tabiiy quyosh nurida yetishtirilgan bog‘dorchilik mahsulotlari mazasini maqtamoqda, o‘zbek xonadonida mehmon bo‘lganlari mehmondorchiligimiz, milliy an’ana va qadriyatlarimizga tan beryapti, yana jannatmonand yurtimizga kelish orzusi bilan yashamoqda. Aslida, o‘zaro manfaatli hamkorlikning asosi ham mana shunda: ming yillardan ziyod davom etib kelayotgan o‘zaro ishonch, ochiq va samimiy muloqotlar, do‘stlik rishtalaridadir. Xitoy xalq maqolida aytilganidek, “Mamlakatlar do‘stligi xalqlarning yaqinligidan, xalqlarning yaqinligi esa qalblar yaqinligidan kuch oladi”.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Xitoyning yetakchi gazetasi “Jenmin jibao”da e’lon qilingan “O‘zbekiston — Xitoy: ming yillar bardavom do‘stlik va hamkorlik” sarlavhali maqolasi biz, o‘zbek yoshlari singari xitoylik tengdoshlarimizga ham kelajakka nisbatan katta ishonch, ruh va kuch berganini ta’kidlash o‘rinli. Umuman olganda, hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarida erishilgan yutuqlar, istiqboldagi rejalar, o‘zaro ishonchning asosi va mazmunini tashkil etuvchi “inson qadrini yuksaltirish”ga xizmat qiluvchi g‘oyalar davlatlarimiz taqdiri va taraqqiyoti uchun muhimdir.

Yosh tahlilchi olim sifatida aytishni istardimki, O‘zbekiston va Xitoy xalqini mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni ta’minlash borasidagi mushtarak intilishlar, zamonlar osha sayqallanib kelayotgan, sinovlarda toblangan do‘stlik aloqalari birlashtirib turadi. Zero, ushbu do‘stlik aloqalari ikki xalqning kelgusi asrlarda ham baxtli bo‘lishini kafolatlashi shubhasiz.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 26-yanvar, 19-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz



Islohot odimlari

# ISHDA HAM, UYDA HAM TEJAMKORLIK

## Unga qanday erishiladi?

Boshlanishi 1-betda

### O‘YNAB ISHLATSANG HAM, O‘YLAB ISHLAT

Zokir aka keyingi paytda anchagina tejamkor bo‘lib qoldi. Avvallari olgan maoshini bir so‘migacha hisoblab ishlatar edi, korxona rahbari bo‘lgach esa yanada tejamkor bo‘lishga odatlandi. Chunki...

O‘tgan oy xonadoni uchun elektrga anchagina pul ketgan bo‘lsa, korxonadagi hisob-kitobi rejadagidan ham oshib ketdi. Yirik raqamlarni qog‘ozga yozgancha, qanday qilib buning oldini olishni o‘ylab qoldi. Nima qilsa, bu boradagi xarajatlarni kamaytirish mumkin? Bosh qotirib o‘tirarkan, yordamchisi yuqori tashkilotdan so‘rashayotganini aytib qoldi. Telefon orqali qisqa muloqotdan so‘ng shoshgancha yordamchini chaqirib, kompyuterda hisobot tayyorlashga kirishdi. Ammo bir daqiqa o‘tmasdan, chiroq o‘chib qoldi. Shoshib turganda bu holatni kutmagandi. Bir oz asabiylashib, xo‘jalik mudirini chaqirdi. Elektr butun korxona bo‘ylab o‘chgani uchun ham ish to‘xtab qoldi. Boz ustiga topshirishi kerak bo‘lgan hisobotni o‘n daqiqada jo‘nataman, deb va’da qilib qo‘ygan. Vaqt kutib turmaydi. Kutilmagan bu vaziyatdan chiqishning yo‘lini topolmay, jim qoldi. Shoshganicha tuman elektr tarmoqlari bo‘limiga qo‘ng‘iroq qildi. Holatni ma’lum qilarkan, biroz sukunatdan so‘ng korxonaning elektr toki uchun o‘tkazgan mablag‘i tugaganini, agar pul o‘tkazilsa, chiroqni qaytadan yoqishni ma’lum qilishdi. Yaqindagina to‘lov qilingandi, o‘n kunda o‘chib qolishi mumkinmi?

Ko‘pchilik ishchi-xodimlarga e’tiroz bildirarkan, o‘zi ham ishdan qaytguncha xona chiroqlarini, hattoki qish kunlarida isitkichlarni ham o‘chirmasdan ketishini o‘ylab xijolat chekdi. Tezda hisobchini chaqirib, elektr uchun to‘lov o‘tkazdi. Bu orada ikki marta qo‘ng‘iroq bo‘lib, yuqori tashkilotdan yaxshigina tanbeh oldi.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Nishon tumanidagi Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasiga ish yuzasidan borib qoldi va ko‘p narsaning guvohi bo‘ldi. Ishlab chiqarishda, yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda, umuman, inson hayoti va turmush tarzida juda muhim bo‘lgan elektr tokini iste’molga yetkazish uchun bunchalik katta mehnat va xarajat talab qilinishini tasavvur qilmagandi.

Zokir aka endilikda nafaqat o‘z mablag‘ini, balki elektr tokini ham tejaydigan, behuda yonib turgan chiroqlarni o‘chirib, keraksiz holatda ishlayotgan elektr jihozlarini tokdan ajratib qo‘yishni kanda qilmaydigan bo‘ldi. Bu odat korxonadagi jamoa o‘rtasida ham, oila a’zolarida ham qat’iy tartibga aylandi.

### YANGI LOYIHALAR SARI QADAM

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 85 foizga yaqini issiqlik elektr stansiyalari hissasiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Nishon tumanidagi Tallimarjon issiqlik elektr stansiyasi ham bir necha yillardan buyon aholini elektr manbai bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

Stansiyada ilk marta 2004-yil noyabr oyida 800 MVt.li energoblok ishga tushirilgan. Shundan so‘ng bu yerda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida yangi texnologiyalar jalb etila boshlandi. 2016-yil 4-choragiga kelib, 450 MVt.li 1-bug‘-gaz qurilmasi ish boshladi. Oradan bir yil o‘tgach, yana shunday quvvatdagi ikkinchi qurilma ishga tushirildi. Bu esa aholini energiya bilan ta’minlash uchun qilingan muhim harakatlardan biri bo‘ldi.

> 2025-yilda “Tallimarjon IES” AJda yangi loyihaning ishga tushishi aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabini qondirish bilan birga, ma’lum miqdorda import o‘rnini qoplashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining o‘sishi uchun tashlangan muhim qadamlardan biri hisoblanadi.



— Bu energobloklar tufayli stansiyaning elektr energiyasi ishlab chiqarish yillik quvvati 7,2 milliard kilovatt-soatga ortdi, — deydi korxonaning ekspluatatsiya xizmati boshlig‘i Faxriddin Suyunov. — Yiliga iste’molchilarga qariyb 11,4 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini yetkazib berish imkoniyati paydo bo‘ldi. Korxonamizda energiya samaradorligini yanada oshirish borasidagi harakatlar bu bilan to‘xtab qolgani yo‘q. Jumladan, elektr ishlab chiqarishda, asosan, gazdan ko‘p foydalanamiz. Imkon darajasida yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda kam xarajat qilib, yaxshiroq natijaga erishishga intilmoqdamiz.

2013-yilda “Tallimarjon IES” AJga qarashli 500 kVt.li ochiq taqsimlash qurilmasini qurish investitsiya loyihasi ishga tushirilgandi. Bundan asosiy maqsad esa yurtimizda energiya tizimining janubi-g‘arbiy va janubiy hududlarini elektr bilan ta’minlashga qaratilgan.

Korxona ishlab chiqargan elektr energiyasi transformatorlar orqali liniyalar bo‘yicha ochiq taqsimlash qurilmasiga uzatiladi. Bu yerdan esa elektr energiyasi hududlarga taqsimlanadi. Ya’ni “Tallimarjon — G‘uzor”, “Tallimarjon — Qorako‘l” va “Tallimarjon — So‘g‘diyona” liniyalari orqali Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Surxondaryo viloyatlaridagi xalq xo‘jaligi obyektlari va aholi elektr energiyasi bilan ta’minlanadi. 500 kVt.li ochiq taqsimlash havo liniyasining umumiy uzunligi 217,6 kilometr bo‘lib, uning 87 kilometri Samarqand viloyati va 130,6 kilometri Qashqadaryo viloyati hududiga to‘g‘ri keladi.

Stansiyada ayni paytda yangi loyihalarni amalga oshirish ishlariga ham start berilgan. Jumladan, korxonada yana 2 ta bug‘-gaz qurilmasi qurilishi amalga oshirilmoqda.

Yangi barpo etilayotgan qurilmalarning umumiy quvvati 1065 megavatt bo‘lib, loyihaning umumiy qiymati 944,87 million dollarni tashkil etadi.

Osiyo taraqqiyot banki talablariga asosan, qurilmani bunyod etish uchun xalqaro tender savdolari o‘tkazilgan bo‘lib, unga dastlab 31 ta xorijiy kompaniya qiziqish bildirgan. Ular orasidan Ispaniya hamda Yaponiya kompaniyalari yuqori baholanib, qurilish ishlarini bajarishni o‘z zimmasiga olgan.

### SAMARADORLIK ORTADI

Mutaxassislar ta’kidlashicha, yangi bug‘-gaz qurilmalari ishga tushirilgach, korxona yiliga qo‘shimcha qariyb 8 milliard kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi va yuqori tejamkor texnologiyalarni qo‘llash hisobiga yiliga 600 million kub metrga yaqin tabiiy gaz tejalishiga erishiladi.

Bu yangi investitsion loyiha Samarqand va Buxoro viloyatlari iste’molchilarini, Qarshi magistral kanalidagi yettita nasos stansiyasini va yana ko‘plab aholi punktlarini elektr energiyasi bilan ta’minlashga xizmat qiladi.

— Yangi loyiha asosida barpo etilayotgan qurilmalarimiz o‘z natijasini bera boshlagach, korxonada qo‘shimcha 100-120 ishchi o‘rni yaratiladi, — deydi stansiyaning kapital qurilish bo‘limi boshlig‘i Alimurod Karimov. — Hozirda bunyodkorlik ishlariga 600 ga yaqin kishi jalb etilgan. Ularning asosiy qismini mahalliy aholi vakillari tashkil qiladi. Yetmish sakkiz nafari esa xorijiy kompaniya xodimlaridan iborat. Loyiha ishlari 2025-yilda yakunlanishi rejalashtirilgan.

Mazkur bug‘-gaz qurilmalari to‘liq faoliyat boshlagach, korxonaning umumiy quvvati 2800 MVt.ga yetkaziladi. Shuningdek, yoqilg‘i-energetika resurslarini tejovchi va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish bo‘yicha ham “Tallimarjon IES” AJda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, korxonada umumiy quvvati 56 kVt. bo‘lgan 9 ta quyosh fotoelektr stansiyasi montaj qilindi. Bundan tashqari, 22 kVt. va 110 kVt. quvvatdagi chastota o‘zgartiruvchi qurilmalar o‘rnatildi. Shu bilan birga, umumiy quvvati 1038 kVt.lik quyosh fotoelektr stansiyasi ham barpo etildi. Natijada katta hajmdagi energiya ishlab chiqarilib, tabiiy gaz iqtisod qilinishiga erishilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 2025-yilda “Tallimarjon IES” AJda yangi loyihaning ishga tushishi aholining elektr energiyasiga bo‘lgan talabini qondirish bilan birga, ma’lum miqdorda import o‘rnini qoplashga xizmat qiladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining o‘sishi uchun tashlangan muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

JOINT-STOCK COMPANY THERMAL POWER PLANTS

**Akbar RAHMONOV,**
*“Yangi O‘zbekiston” muxbiri*

---

Inson qadri uchun

# BUGUN YUTUQLARDAN TASKIN TOPIB O‘TIRADIGAN PALLA EMAS

## davr talabi oldimizga yangidan-yangi vazifalar qo‘ymoqda

**Xolmirza QO‘LDOSHEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sirdaryo viloyatidagi Xalq qabulxonasi mudiri**

**“Insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash — odamiylikning eng oliy mezonidir”, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, “Xalqimiz o‘z hayotida ijobiy o‘zgarishlarni ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun ko‘rishi kerak”.**



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bu so‘zlari bugun mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylanib, xalqimizning hayotiy talab va ehtiyojlarini ta’minlash, odamlarni rozi qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qilayotir. Bu jarayonda xalq bilan muloqot qilish, murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha yangi tizimga asos solingani jamiyatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquq va manfaatlarini muhofazalash, har bir insonning orzu-niyatlari va intilishlarini ro‘yobga chiqarishda muhim omil bo‘lyapti.

Bu yo‘nalishda dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan o‘ziga xos zamonaviy tuzilma — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyat boshlaganiga yetti yil bo‘ldi. O‘tgan yillar mobaynida Xalq qabulxonalari orqali fuqarolarni qiynab kelayotgan ko‘plab muammolarga yechim topildi, ming-minglab insonlarning roziligiga erishildi. Bu fikrimizni raqamlar asosida izohlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sirdaryo viloyatidagi Xalq qabulxonalari faoliyatiga bir nazar tashlasak. Agar ushbu tizim orqali 2018-yilda aholi tomonidan kelib tushgan murojaatlarning bor-yo‘g‘i 23 foizi hal etilgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 24 foizga, 2020-yilda esa 26 foizga yetdi. O‘tgan 2023-yilda 57 foizdan oshdi.

Shu bilan birga, yillar o‘tgani sari Xalq qabulxonalari xodimlarining ish tajribasi va salohiyati yuksaldi. Sektorlar, korxona, tashkilot va muassasalar xodimlarining murojaatlarga bo‘lgan mas’uliyati ortishi natijasida oldimizga qo‘yilgan vazifalarni bajarishdagi ko‘rsatkichlarimiz ham yil sayin yaxshilanib boryapti.

Bundan tashqari, keyingi yillarda mahalla infratuzilmasi rivojiga e’tibor tobora kuchaymoqda. Joylarda aholi bilan bevosita, doimiy ravishda sayyor qabullar uyushtirilyapti. Natijada aholi murojaatlari yildan-yilga kamayib boryapti. Masalan, viloyatimizdagi Virtual va Xalq qabulxonalariga aholi tomonidan yo‘llangan murojaatlar 2022-yilda 3 foizga, 2023-yilda esa 6 foizga kamaygan.

Tahlilimizni sohalar bo‘yicha olib qaraydigan bo‘lsak, Virtual va Xalq qabulxonalari orqali hamda sayyor qabullarda aholi tomonidan kommunal sohalar va dasturlardagi muammolar bo‘yicha kelib tushgan murojaatlarning tegishli soha mas’ullari tomonidan to‘liq ko‘rib chiqilishi ustidan alohida nazorat olib borish yo‘lga qo‘yildi. Bu borada aniqlangan kamchiliklar bo‘yicha tegishli soha rahbarlariga ko‘rsatmalar berib borilyapti.

Xususan, to‘planib qolgan muammolar haqida viloyat hokimiga, shuningdek, viloyat, tuman (shahar) xalq deputatlari kengashlariga axborotlar kiritib borish tartibi joriy etilgani o‘z samarasini bermoqda. Natijada aholini qiynayotgan muammolarga tez va aniq yechim topilmoqda.

> **Keyingi yillarda mahalla infratuzilmasi rivojiga e’tibor tobora kuchaymoqda. Joylarda aholi bilan bevosita, doimiy ravishda sayyor qabullar uyushtirilyapti. Natijada aholi murojaatlari yildan-yilga kamayib boryapti. Masalan, viloyatimizdagi Virtual va Xalq qabulxonalariga aholi tomonidan yo‘llangan murojaatlar 2022-yilda 3 foizga, 2023-yilda esa 6 foizga kamaygan.**

Masalan, o‘tgan yili elektr energiyasi ta’minoti bo‘yicha murojaatlarning 60,3 foizi, ichimlik suvi bo‘yicha kelib tushgan murojaatlarning 70,3 foizi hamda tabiiy va suyultirilgan gaz ta’minotiga doir murojaatlarning 75,8 foizi ijobiy hal etilishi ta’minlandi.

Bu boradagi ishlarni yanada kengaytirish maqsadida Xalq qabulxonalari tomonidan o‘tgan yili davlat organlari va tashkilotlarida aholi murojaatlari bilan ishlash faoliyati bo‘yicha 300 dan ortiq amaliy muhokamalar o‘tkazildi. Bu tadbirlarda murojaatlarni ko‘rib chiqish va hal etishda yuzaga kelayotgan muammo, kamchiliklar rahbar va mas’ul xodimlar ishtirokida tanqidiy muhokama qilinib, muammoli masalalarning qonuniy yechimini topishga erishilyapti.

O‘tgan yili Xalq qabulxonalarida viloyatdagi sektorlar va turli tashkilotlar rahbarlarining qariyb 4 ming marta shaxsiy qabuli uyushtirildi. Bu jarayonda jismoniy va yuridik shaxslar ko‘targan masalalar qonun talablari asosida ko‘rib chiqilishi ta’minlandi. Shuningdek, 3 mingdan ortiq ommaviy sayyor qabullar o‘tkazilib, fuqarolarning 14 mingga yaqin muammolaridan 78,8 foizi ijobiy hal etildi.

Joriy yilda sud-huquq masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan qabullar davomida kelib tushgan murojaatlarning 46,9 foizi ijobiy hal qilindi. Xususan, tadbirkorlik subyektlariga 1 milliard 405 million 811 ming so‘m qarzdorlik undirib berildi. Shuningdek, 14 yurtdoshimizga fuqarolik va xorijga chiqish pasportlari rasmiylashtirildi, 45 nafar mahkum jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilindi.

Murojaatlar tahlilidan kelib chiqib, hududlardagi og‘ir mahallalarda obodonlashtirish ishlarini tashkil qilish, aholini qiynab kelayotgan muammolarga yechim topishni tashkillashtirish borasida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Masalan, o‘tgan yili Boyovut tumanidagi Tinchlik, Xovos tumanidagi Oqchangal, Oqoltin tumanidagi Mustaqillik, Guliston tumanidagi Inoqlik va Sayxunobod tumanidagi Yangi hayot mahallalarida “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlari joriy etildi. Natijada ushbu mahallalarda aholining yashash sharoiti yaxshilanib, qishloqlar qiyofasi tubdan o‘zgardi. Infratuzilma, uy-joy fondi va ijtimoiy soha obyektlarini ta’mirlash va rekonstruksiya qilish bo‘yicha qisqa muddatlarda muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilib, aholining roziligiga erishildi.

Xususan, Oqchangal mahallasida “Obod mahalla” dasturi asosida ko‘chalarga 120 ta beton ustun o‘rnatilib, mazkur hududda yashovchi 600 ga yaqin aholi, Sayxunobod tumanidagi Yangi hayot mahallasi hududida yangi transformator o‘rnatilib, 3700 dan ortiq aholining elektr ta’minoti yaxshilandi. Oqoltin tumani Mustaqillik mahallasi hududidagi ko‘chalardan birida ichimlik suvi tarmog‘i nasosi ta’mirlanishi natijasida 100 dan ortiq xonadon ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

Bundan tashqari, joylarga uyushtirilgan sayyor qabullar mobaynida aholidan tushgan murojaatlar yechimiga ham alohida e’tibor qaratildi. Misol uchun, Sirdaryo tumani Ahillik mahallasi aholisi 4-yildan buyon tuman elektr tarmoqlari korxonasiga murojaat qilsa-da, muammolari hal etilmayotganidan norozi bo‘lib, tumandagi Xalq qabulxonasiga murojaat qilgan edi. Tuman elektr tarmoqlari korxonasi xodimlari bilan birgalikda murojaat joyiga chiqib o‘rganilib, 20 dona beton ustun o‘rnatildi va elektr tarmoqlari yangilandi. Natijada mahalladagi 36 xonadonning elektr ta’minoti yaxshilandi.

Sayxunobod tumani Olg‘abos mahallasidagi Yangiobod ko‘chasida yashovchi aholi ichimlik suvi tarmog‘i yo‘qligi tufayli uzoq masofadan suv tashib ichardi. Mahalla ahli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ishonch telefoni orqali ushbu muammoni hal etishda yordam so‘rab murojaat yo‘llagan. Ushbu muammoni hal etish yuzasidan 150 metr masofaga yangi ichimlik suvi tarmog‘i tortilib, 80 ta xonadonda yashovchi 300 dan ortiq aholining mushkuli oson bo‘ldi.

Xalqimiz hayotida tub o‘zgarish yasayotgan, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzi o‘zgarishiga turtki bo‘layotgan bunday xayrli ishlar haqida yana ko‘plab misollar keltirish mumkin. Ammo bugun yutuqlardan taskin topib o‘tiradigan palla emas. Hayot shiddati, o‘zgarayotgan davr talabi zimmamizga bu borada yangidan-yangi vazifalarni yuklamoqda. Qolaversa, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davri asosini tashkil qilayotgan “Inson — jamiyat — davlat” tamoyili bu yo‘nalishdagi ishlarni xalqimiz ehtiyoji va zamon talabidan kelib chiqib, doimiy takomillashtirib borishni taqozo etayotir. Zero, odamlarning roziligiga faqat va faqat amaliy ishlar bilan erishiladi.

Shu bois, Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yilida boshlangan ezgu ishlarni izchil davom ettirish, aholi murojaatlari bilan ishlash faoliyati samaradorligini yanada oshirish, xalq bilan muloqotni tashkil etishda davlat idoralari va aholi orasida mustahkam ko‘prik vazifasini og‘ishmay bajarish zimmamizdagi muhim vazifa bo‘lib qoladi.

**O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘nalishlarida tog‘-kon metallurgiyasi, yer qa’rini o‘rganish sohalari bor. Keyingi yillarda Xitoyning yirik sanoat kompaniyalari bilan aloqalar mustahkamlanib, qator investitsiyaviy loyihalar ishga tushirildi.**

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

## Bugunning gapi



# TOG‘-KON SANOATI



**Forum doirasida Geologiya fanlari universiteti bilan Xitoy geofanlar hamda Xitoy tog‘-kon va texnologiya universitetlari o‘rtasida akademik almashinuv, qo‘shma ta’lim dasturlari, ilmiy loyihalarda ishtirok etish kabi yo‘nalishlarda memorandumlar imzolandi.**

## Sohada tajriba almashish ulkan natijalar garovi

**Maqsud ISOQOV,
geologiya-mineralogiya fanlari doktori**





Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston ham rangli va qimmatbaho metallar zaxirasi hamda ularni qazib chiqarish bo‘yicha dunyodagi yetakchi davlatlardan biri. Buni oltin qazib olish bo‘yicha dunyoning TOP-10 mamlakati ro‘yxatida ekanimiz misolida ham ko‘rish mumkin. O‘tgan oyda “Mining Visuals” portali sayyoramizda ishlatilayotgan eng yirik oltin konlariga oid e’lon qilgan reytingda Muruntov koni birinchi o‘rinni egallagani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Bugungi kun sanoati uchun eng talabgir resurs — mis zaxiralari bo‘yicha ham yetakchilar qatoridamiz. Xususan, birgina Olmaliqda 30 million tonnaga yaqin mis zaxirasi aniqlangan.

Hozir shu kabi qazilma boyliklarini chuqur qayta ishlash orqali sanoatni jadal rivojlantirish borasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Demak, ayni yo‘nalishda Xitoy bilan hamkorlik qilish ikki tomon uchun ham manfaatli hisoblanadi.

Shu bois, O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘nalishlarida tog‘-kon metallurgiyasi, yer qa’rini o‘rganish sohalari bor. Keyingi yillarda Xitoyning yirik sanoat kompaniyalari bilan aloqalar mustahkamlanib, qator investitsiyaviy loyihalar ishga tushirildi.

O‘zbekiston Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi hamda Xitoyning “The 4th Constraction Company Ltd. of China 15h Cooperation” kompaniyasi o‘rtasidagi hamkorlik doirasida xorijlik mutaxassislarni yurtimizda ko‘mir qazib chiqarish istiqbollariga jalb etish rejalashtirilgan. Negaki, xitoylik mutaxassislar ko‘mir shaxtalarini qurish borasida katta tajribaga ega.

2023-yil noyabr oyida Pekin shahrida “Tabiiy uran sanoatini rivojlantirish bo‘yicha birinchi xalqaro forum” doirasida Xitoy Milliy yadro korporatsiyasi va “Navoiyuran” davlat korxonasi o‘rtasida strategik hamkorlik to‘g‘risida memorandum imzolangandi. Xitoyning mazkur korporatsiyasi mamlakatdagi global yadroviy loyihalar bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Korporatsiya hozir Xitoyda ishlayotgan 22 ta va yangidan qurilayotgan 6 ta energoblokka ega uran ishlab chiqaruvchi yagona yirik korxonadir.

Sian shahrida 2023-yil 17-22-may kunlari o‘tkazilgan O‘zbekiston — Xitoy biznes-forumi doirasidagi ko‘rgazmada qator tashkilot va idoralar bilan birga O‘zbekiston Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Olmaliq tog‘-kon metallurgiya kombinati, O‘zbekiston metallurgiya kombinati vakillari ham ishtirok etib, respublikamizdagi geologiya sohasining so‘nggi yutuqlari namoyish qilingandi. Xitoy tomoni bilan qo‘shma loyihalar, ularning istiqbollari xususida kelishib olingandi. Ayni paytda mazkur kelishuvlar asosida yirik loyihalar hayotga tatbiq etilyapti.

“Sharg‘unko‘mir” AJni modernizatsiya qilish bo‘yicha investitsiyaviy loyiha doirasida esa “Sharg‘unko‘mir” AJ hamda Xitoyning “Amikam” kompaniyasi o‘rtasida kelishuv mavjud. Unga ko‘ra, yer osti ko‘mir qazib olish majmualarini ekspluatatsiya qilish uchun xitoylik yuqori malakali mutaxassislar jalb etiladi.

Prezidentimizning 2020-yil 8-iyundagi “Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tizimida Geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan respublikada yagona — o‘zida ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mujassamlashtiradigan universitet — klaster barpo etildi. Universitetda geologiya sohasi uchun yetuk, malakali, zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash ko‘zda tutilgan.

Qarorda universitetga xorijiy davlatlarning yetakchi ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, biznes hamjamiyatlari va xalqaro geologik jamiyatlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish hamda mustahkamlash, ta’lim va ilm-fan sohasida xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan. Hozirgi kunga kelib, 30 ga yaqin davlatning yetakchi oliy ta’lim muassasalari, ilmiy markazlar va yirik kompaniyalar bilan ta’lim va ilm-fan yo‘nalishlarida hamkorlik aloqalari o‘rnatildi.

Jumladan, universitet tarkibidagi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti huzurida Xitoyning Shinjon-Uyg‘ur muxtor tumani davlat dasturi byurosi bilan hamkorlikda O‘zbek — xitoy ilmiy-texnik hamkorlik markazi tashkil etilgan. O‘tgan davr mobaynida mazkur dastur doirasida institutning 19 nafar yosh ilmiy tadqiqotchisi Xitoy tomonidan tashkil etilgan turli qo‘shma seminarlarda ishtirok etdi. O‘z navbatida, xitoylik 20 dan ortiq ilmiy tadqiqotchi O‘zbekistonning tog‘-kon sanoati, Chotqol-Qurama, Markaziy Qizilqum hududlaridagi ma’dan konlari bilan yaqindan tanishdi.

Uzoq muddatli strategik hamkorlik, qo‘shma loyihalarni amalga oshirishda yuqori natijalarga erishish hamda foydali qazilmalarni qayta ishlash sohasida muhim vazifalarni yechish maqsadida 2023-yil 17-oktabr kuni Pekin shahrida o‘tkazilgan “Bir makon, bir yo‘l” sammiti doirasida Xitoyning “BGRIMM Technology Group” kompaniyasi va Geologiya fanlari universiteti tarkibidagi Mineral resurslar instituti o‘rtasida qo‘shma laboratoriya tashkil qilish bo‘yicha hamkorlik shartnomasi imzolandi. Bundan tashqari, institutda kompaniya tashabbusi bilan “Murakkab tarkibli ma’danlarni qayta ishlash va undan olingan murakkab boyitmalardan qimmatbaho metallarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish” loyihasi ham amalga oshirilmoqda.

Hamkorlikning uzviy davomi sifatida shu kunlarda Pekin shahrida bo‘lib o‘tgan Xitoy — O‘zbekiston ta’lim forumini alohida ta’kidlash joiz. Ikki mamlakat oliy ta’lim muassasalari rektorlari ishtirokida o‘tkazilgan forum ta’limning turli bosqichlaridagi masalalar, global muammolar muhokamasi uchun o‘ziga xos platforma vazifasini o‘taydi.

Forum doirasida Geologiya fanlari universiteti bilan Xitoy geofanlar hamda Xitoy tog‘-kon va texnologiya universitetlari o‘rtasida akademik almashinuv, qo‘shma ta’lim dasturlari, ilmiy loyihalarda ishtirok etish kabi yo‘nalishlarda memorandumlar imzolandi.

Asosiy yo‘nalishlardan biri — qo‘shma ta’lim dasturini yo‘lga qo‘yish. Dastur doirasida talabalar tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha 2 ta diplomga ega bo‘lishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi uzoq yillik hamkorlik qatorida ushbu ta’lim forumi ham davlatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va hamjihatlik, taraqqiyotning yangi sahifalarini ochishga xizmat qiladi.

## Oliy ta’limdagi yangilanishlar

**Zafarbek OLIMBEKOV,
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi boshqarma boshlig‘i**



**Jamiyatning barcha jabhalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish samaradorlikni oshirish, aholi turmush farovonligini yuksaltirish imkoniyatini kengaytiradi. Bugungi kunga kelib, raqamli texnologiyalarning barcha sohalarda faol qo‘llanilishi xizmat sektorining ham tez sur’atlarda rivojlanishiga xizmat qilyapti. Mamlakatimizda aholiga raqamli xizmatlardan foydalanish uchun qulay sharoit yaratish bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning 2023-yil 24-maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bunga yaqqol dalil bo‘la oladi.**

# MILLIY SERTIFIKAT OLISH TARTIBIDA NIMALAR O‘ZGARDI?

Ma’lumki, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan abituriyentlarga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi “Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori asosida oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarida imtiyoz taqdim etuvchi Milliy sertifikat test sinovlari o‘tkazib kelinmoqda. Davlatimiz rahbarining yuqoridagi qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasining qaroriga bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Xususan, umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test sinovlarida ishtirok etishga ariza berish va berilgan sertifikatlarning elektron shaklini yuklab olish borasida raqamli xizmatlarni ko‘rsatish imkoniyatlari yanada kengaytirildi.

Endilikda talabgor sertifikat olish maqsadida test sinovida qatnashish uchun O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) orqali elektron shaklda ariza berib, ro‘yxatdan o‘tadi. Talabgorga so‘rovnoma rasmiylashtirilganidan so‘ng vakolatli organ tomonidan YIDXP orqali test sinovidan o‘tish qoidalari to‘g‘risidagi eslatma beriladi. So‘rovnomadagi hujjatlardan boshqa qo‘shimcha hujjatlar talab etilmaydi.

Talabgor haqidagi ma’lumotlar to‘g‘riligiga uning o‘zi shaxsan javobgar hisoblanib, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar va chet el fuqarolari uchun Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tishda imkoniyatlar yaratiladi. Shuningdek, 16 yoshga to‘lmagan shaxslar ID-karta yoki xorijga chiqish pasporti orqali ro‘yxatga olinishi yo‘lga qo‘yildi.

Test sinovi o‘tkaziladigan sana va joy to‘g‘risidagi ma’lumot test sinovi o‘tkaziladigan kundan kamida yetti kun oldin YIDXP orqali yuboriladi. Shuningdek, test sinovlari natijalari ular yakunlangan kundan boshlab yigirma bir ish kunidan kechikmay, agentlikning rasmiy veb-saytida hamda YIDXP orqali e’lon qilinadi.

Sertifikat berish uchun talabgordan ariza berilgan kundagi bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 barobari miqdorida to‘lov undiriladi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash kerakki, davlat xizmati ko‘rsatilishi uchun ro‘yxatdan YIDXP orqali o‘tilganda talabgordan belgilangan to‘lov miqdorining 90 foizi undirilishi belgilandi.

Bundan tashqari, yana bir muhim qo‘shimcha: “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida ro‘yxatga olingan shaxslarga hamda I va II guruh nogironligi bo‘lgan fuqarolarga Milliy sertifikat sinovlarida ishtirok etish uchun belgilangan to‘lovning 50 foizi miqdorida chegirma qo‘llaniladi.

Agar talabgorlar uzrli sababga ko‘ra (kasalligi yoki oila a’zolarining vafot etganini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda), test sinovlarida qatnasha olmagan talabgor test sinovi o‘tkazilgan sanadan besh ish kunidan kechikmay, ushbu holatni tasdiqlovchi hujjatlarni YIDXP orqali agentlikka elektron shaklda taqdim etishi lozim.

Bunda talabgorga Bilim va malakalarni baholash agentligini rivojlantirish jamg‘armasi hisobvarag‘iga kelib tushgan to‘lov miqdori agentlik tomonidan, boshqa hisobvaraqlarga taqsimlangan to‘lov to‘liq miqdorda YIDXP orqali qaytariladi. Agar talabgor test sinoviga kechikkan yoki sababsiz kelmagan bo‘lsa, talabgor tomonidan amalga oshirilgan to‘lov qaytarib berilmaydi.

Test sinovlari natijalari bo‘yicha testologiya me’yorlarining buzilish holati aniqlansa, agentlikka test sinovi natijalarini bekor qilish huquqi berildi. Unga ko‘ra, test materiallari xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash qoidalari buzilsa, talabgorlar tomonidan test materiallarini oldindan qo‘lga kiritish holati aniqlansa, shuningdek, test sinovi natijalari tahliliga ko‘ra, taqsimot normal taqsimotdan keskin farq qilsa, testologiya me’yorlari buzilgan, deb hisoblanadi va test sinovi natijalari bekor qilinadi. Bunday holat faqat ayrim hududlarda aniqlansa, faqat ushbu hududlardagi test sinovlari natijalari bekor qilinadi. Bunday holatlarda talabgorlarning xohishiga ko‘ra, amalga oshirilgan to‘lov miqdori qaytariladi yoki qayta test sinovlari tashkil etiladi.

Yangi tartibga binoan, umumta’lim fanlarini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha A+, A, B+, B, C+, C darajali sertifikatlar 3-yil muddatga beriladi va test natijalari xalqaro metodika — Rash modeli asosida hisoblanadi. Unga ko‘ra, 70 balldan yuqori ball olgan talabgorga A+ daraja, 65-69,9 ball olgan talabgorga A daraja, 60-64,9 ball olgan talabgorga B+ daraja, 55-59,9 ball olgan talabgorga B daraja, 50-54,9 ball olgan talabgorga C+ daraja, 46-49,9 ball olgan talabgorga esa C darajali sertifikat beriladi.

A+, A darajali sertifikat olgan abituriyentlarga oliy ta’lim muassasasi bakalavriatiga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ball, B+, B, C+, C darajali sertifikat olgan abituriyentlarga mos ravishda sertifikatdagi umumiy ballga nisbatan foiz asosida test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (proporsional) ball berish joriy etilmoqda. Milliy sertifikatga ega bo‘lgan abituriyentga tegishli majburiy fanlar bo‘yicha belgilangan eng yuqori ball beriladi.



Shu o‘rinda ko‘plab talabgorlardan berilayotgan bir qator savollarga oydinlik kiritib ketsak. Ya’ni sertifikat olish uchun ball pasaydimi, sertifikat test sinovlarida 65 ball olganman, endi menga A darajali sertifikat beriladimi, Rash modeli o‘zi nima, bunda qanday imkoniyatlar yaratiladi, maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (proporsional) ball berish tartibi qanday?

Bir so‘z bilan aytganda, ball pasaydi, lekin test natijalari xalqaro metodika — Rash modeli asosida hisoblashga o‘tkazildi. Bunda 65 ball olgan talabgorga A darajali sertifikat beriladi. O‘z navbatida, 46 ball olgan talabgor C darajali sertifikatga ega bo‘ladi. Bunda maksimal ball 75 ballga to‘g‘ri keladi. Masalan, abituriyent matematika fanidan 60-64,9 oralig‘ida ball bilan V+ daraja sertifikat olgan bo‘lsa, unga mos ravishda sertifikatdagi umumiy ballga nisbatan foiz asosida test sinovlarida ushbu fandan belgilangan maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (proporsional) ball beriladi.

Test natijalari xalqaro metodika — Rash modeli asosida hisoblashga o‘tkazilgunga qadar sertifikat olgan (sertifikatda natijalari 86 ball, 80 ball, 60 ball ko‘rsatilgan) talabgorlar uchun sertifikatning amal qilish muddati (3 yil) yakuniga yetgunga qadar avvalgi tartib amal qiladi.

Rash modeli asosida natijalar hisoblanishi bir necha muammolar hal qilinishiga sabab bo‘ladi. Masalan, standartlik muammosi, qobiliyat va murakkablik darajalarining bir xil shkalada bo‘lishi ta’minlanadi. Murakkablik va qobiliyat darajalari ilmiy asoslangan holda, inson omiliga bog‘liq bo‘lmasdan xolisona baholanadi. Baholashda to‘g‘ri javob berilgan test topshiriqlari soniga nisbatan olingan foiz o‘rniga umumiy sinaluvchilarning qobiliyat taqsimoti ishlatiladi. Test topshiriqlari bazasi kalibrovkalangan, ballar esa murakkablik darajasi bo‘yicha tekislangan bo‘ladi. Bu test topshiriqlari murakkablik darajasi va test topshiriqlarini yechish uchun beriladigan vaqt bo‘yicha bahs-munozaralarga chek qo‘yadi (yuqori daraja olish uchun test topshiriqlarining barchasini yechish sharti qo‘yilmaydi). Test topshiriqlari sifatini oshirish uchun test natijalarini turli xil statistik usullar bilan tahlil qilish imkoniyatlari oshadi.

Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholash bo‘yicha milliy test sinovlarini o‘tkazish va baholash tartibiga kiritilgan o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar talabgorlar uchun unda ishtirok etish imkoniyatini kengaytiradi, ularning bilimlarini xolisona baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, yurtimizda ta’lim sifati oshishida muhim rol o‘ynaydi.

## Tariximiz ko'zgusi



# NUQTASIZ YOZILGAN QO'LYOZMALAR

## yoxud shonli o'tmishimiz pasporti hisoblanmish qadimiy manbalar haqida

**Xusrav HAMIDOV,
O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori**



**Har bir xalq o'z madaniyatiga ega. Ularning tafakkuri, dunyoqarashi, bilimi yozishmalar orqali bizgacha yetib kelgan. Qadimiy yozma manbalar buyuk tariximizning ko'zgusidir. Bular orqali ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan muhtasham adabiyot, san'at, madaniyat, ilm-ma'rifat obidasi haqida ko'p ma'lumotlarga ega bo'lamiz.**

Prezidentimizning 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu borada katta voqea bo'ldi. Ushbu qaror asosida Vazirlar Mahkamasining "Qadimiy yozma manbalar davlat reyestri to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori ham 2022-yil 6-sentabr kuni e'lon qilindi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining ustuvor vazifalaridan biri qadimiy yozma manbalar davlat reyestrini yuritish hisoblanadi. Davlat reyestri muzeylar, kutubxonalar va arxiv fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarda saqlanayotgan qadimiy yozma manbalarni saqlash, tizimlashtirish va nazorat qilishga yo'naltirilgan. Bu qadimiy yozma manbalar 1950-yilga qadar yaratilgan asarlarni qamrab oladi, ya'ni ular tarkibiga yozma yodgorliklar, qo'lyozmalar va toshbosmalar kiradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistondagi muzey, kutubxona, arxiv fondlar va boshqa tashkilotlarda 100 mingdan ziyod qadimiy yozma manbalar saqlanadi. Ular ichida qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar va toshbosmalar bor. Shu jumladan, 40 mingdan ko'proq manbalarni qo'lyozmalar tashkil etadi.

Markaziy Osiyo jahon tamaddunining beshiklaridan biridir. Shu bois, diyorimizda o'tgan asrlar davomida ilmning turli sohalariga oid asarlar yozilgan. Qur'on, hadis, fiqh ilmlarini o'rganish barobarida til, adabiyot, tasavvuf, falsafa, mantiq, tarix, matematika, tibbiyot, san'at, geometriya, astronomiya kabi fanlar haqida buyuk daholarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar jahon tamadduniga alohida ulush qo'shib kelmoqda. Shuning uchun o'rta asrlar haqida gap ketganda, bizning avlodimiz g'urur bilan ajdodlar nomini eslaydi. Ammo ularning nomlari bilan g'ururlanish kamlik qiladi, balki munosib avlod bo'lish uchun ular yaratgan muhtasham ilmiy asarlarni o'qib, uqish hamda amaliyotga tatbiq etish kerak bo'ladi. Masalan, Ibn Sinoning 450 dan ortiq asari bor. Ammo ushbu olimning bizgacha yetib kelgan jami asarlarini o'qib chiqqan kishilarni barmoq bilan ham sanash qiyin. Buning sababi shundaki, olimning asarlari turli fan sohasiga tegishli va ularni o'qib tushunish uchun chuqur bilimga ega bo'lish kerak.

Xalqimiz o'tmishidan xabardor bo'lish, ajdodlarimiz tafakkuri merosidan bahra olish uchun qadimiy yozma manbalar ko'prik vazifasini o'taydi. Ular bizni o'tgan asrlar bilan bog'laydi. O'sha davrdan yetib kelgan har bir manbaning qadr-qimmati bugungi kunda oshib bormoqda. Chunki inson tafakkuri mahsuli hech qachon eskirmaydi, aksincha, vaqt o'tishi bilan yangicha jilolanadi.

Qadimiy yozma manbalarni Davlat reyestriga kiritish nafaqat ularni yo'q bo'lib ketishdan saqlanishga zamin yaratadi, balki ilmiy izlanuvchilar uchun dastlabki ma'lumotlar bazasi sifatida ham xizmat qiladi. Aks holda, ko'p asarlar qayerda saqlanayotgani haqida ma'lumotga ega bo'lolmaymiz.

Ayni paytda Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan Davlat reyestrining 8 jildi nashrdan chiqdi. Har bir jild mingta manbani qamrab olgan. Ya'ni 8 ming qo'lyozma haqida asosiy ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Bu jildlarga kiritilgan barcha manbalar qo'lyozmalardan iborat bo'lib, asosan, arab, fors va eski o'zbek tillarida yozilgan. Ko'p manbalar nasta'liq xatida ko'chirilgan, buning barobarida nasx, suls, shikasta kabi xatlarda yozilgan manbalar ham mavjud. Ushbu manbalar, asosan, Qur'on, hadis, tajvid, fiqh, tarix, tasavvuf, geografiya, adabiyot, grammatika, lug'at, mantiq, falsafa, adabiyotshunoslik kabi yo'nalishlarga tegishli.

Manbalar turli davrlarda kotiblar tomonidan ko'chirilgan. Lekin kuzatishlar qo'limizdagi manbalarning aksar qismi aynan XIX asrda ko'chirilganini ko'rsatadi. Bu esa, bir tomondan, o'sha davrda ajdodlarimizning ilmiy merosini ko'chirib chiqish uchun boshqa davrlarga nisbatan qiziqish ortganini bildirsa,



ikkinchi tarafdan, bizning davrimizga yaqin bo'lgani bois, nisbatan ko'proq manbalar yetib kelganini isbotlaydi.

Bugungi kunda qo'lyozmalarni asrab-avaylashga yangi usullar tatbiq qilinayotgan bo'lsa-da, ayrim joylardagi manbalarning moddiy-texnik bazasida kamchiliklar kuzatiladi. O'ylaymizki, Davlat reyestriga kiritish barobarida o'sha manbalarni restavratsiya qilish ishlari ham yo'lga qo'yilishi bunday kamchiliklarni bosqichma-bosqich bartaraf etishga zamin hozirlaydi. Bu borada Islom sivilizatsiyasi markazida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Manbalar ichida nuqtasiz yozilgan qo'lyozmalar barmoq bilan sanarli bo'lsa ham, o'sha davrning o'ziga xos yozish uslubidan dalolat beradi. Biz bunday manbalar orqali o'rta asr olimlarining zakovati darajasi hamda kotiblarning xat ko'chirish mahoratidan xabardor bo'lishimiz mumkin. Bu usulda ko'chirilgan manbalarning ayrimlari mantiq ilmiga tegishli. Asl ajdodi bizning diyorimizdan chiqqan Mirzo Abdulqodir Bedilning devoni Markaziy Osiyoda sevib o'qilardi. Bedilning ijodi hindiy uslubida yozilgani uchun uni tushunish qiyin kechadi. Bundan tashqari, Bedil devonlari, asosan, shikasta xatida ko'chirilgan edi. Shikasta xatini hamma ham o'qiy olmasdi. Bularga qo'shimcha tarzda Bedil devonlari shikasta xatida nuqtasiz yozilganiga guvoh bo'lamiz. Bunday matnlarni o'qiydigan kishi xat o'qishda va matnlarni tushunishda o'ta usta bo'lishi kerak edi, aks holda, bu kabi manbalarni o'qib tushunish oson kechmasdi. Shunday murakkab ishlarni



uddalashda aruz vaznini bilish ham yordam beradi. O'qilishi qiyin bo'lgan ayrim so'zlarni vazn orqali ma'nosini tushunib o'qishga imkon paydo bo'lardi.

Hammaga ma'lumki, o'tgan asrlarda bizning diyorimizda navoiyxonlik, bedilxonlik kechalari bo'lib turardi. Bunday adabiy kechalarda mashhur shoirlarning she'rlari o'qilardi, baytlari tahlil qilinardi va har bir baytda kamida ikkita — zohiriy va botiniy ma'nolar yuklatilgani aniqlanardi. Manbalar ichida Alisher Navoiy, Bedil devonlari kabi asarlarga ko'p duch kelinishini aynan shular bilan izohlashimiz mumkin. Chunki ilmiy mo'tabar manbalar qatorida nomi yuqorida zikr etilgan shoirlarning devonlari boshqa asarlarga nisbatan ko'proq kuzatiladi.

Davlat reyestriga kiritish jarayonida har bir manba haqida, asosan, quyidagi ma'lumotlar kiritiladi: asar nomi, muallifi, xattot, tili, mavzusi, nashr etilgan yoki ko'chirilgan yili, holati, o'lchamlari, inventar raqami, shakli, saqlanish joyi, manbaga oid qo'shimcha ma'lumotlar. Bulardan tashqari, muqovaning holati va rangi, qog'oz, xat turi haqida ma'lumotlar kiritiladi.

Ayrim manbalar ikki yoki uch tilda yozilgan. Masalan, bitta qo'lyozmada Alisher Navoiyning "Arbain"i barobarida Abdurahmon Jomiyning "Chihil hadis"i va hadislarning asl varianti qorishma tarzda keltirilganini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun bitta qo'lyozma manbaning tili haqida ma'lumot berganda uchta tilni ham ko'rsatish lozim bo'ladi.

Manbalarni Davlat reyestriga kiritish paytida ko'proq quyidagi muammolarga duch kelinadi: asar nomi yo'q yoki xato berilgan, muallifi yozilmagan, ko'chirilgan yili yozilmagan yoki ikkita sana mavjud, unvon yoki kolofon qismi yo'q, poygirlar qo'yilmagani bois, titilib ketgan varaqlarni tartibga keltirish qiyin kechadi, majmua shaklidagi manbalarning faqat bitta asariga ma'lumot berilgan, boshqalariga biror ishora ham yo'q.

Shuningdek, ayrim manbalarning ko'chirilgan joyi va yili unvon yoki kolofon qismida emas, balki asarning o'rtarog'ida beriladi. Buning uchun asarni boshidan oxirigacha ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Yana bir holat, "Gulshani roz" nomi bilan asosiy ma'lumoti taqdim etilgan manba, aslida, boshqa asar ekani ma'lum bo'ldi. Holbuki, manbaning birinchi betida arab yozuvida "Gulshani roz" deb yozilgan edi. Ma'lumot sifatida aytish lozimki, ming baytli ushbu asar Sohibqiron Amir Temur sevib mutolaa qilgan kitoblardan hisoblanadi. Asarda tasavvufiy masalalar savol-javob tarzida yozilgani uchun qo'lma-qo'l yurar ekan, qo'lyozmalar ichidan ko'p nusxalari chiqishiga ham shu asos bo'lsa kerak.

Diqqatni o'ziga tortadigan yana bir masala bor. Ayrim asarlarga sharh yozilgan, yana boshqa olimlar tomonidan o'sha sharhga hoshiyalar bitilgan. Ammo manbada asosiy asar muallifiga ishora qilingan, xolos. Bu esa har bir asarni sinchiklab ko'rib chiqib, ishonch hosil qilgandan keyin Davlat reyestriga kiritish kerakligini talab qiladi. Shular hisobidan ba'zi holatlarda ko'p vaqt ketib qoladi.

Bayoz (antologiya)larda ko'p shoirlar nomi berilgan, ayrimlarida yo'q. Davlat reyestriga kiritilayotgan bayoz manbalarning o'ziga xos usuli shundan iboratki, ularda zullisonayn shoirlar ijodi berilgan yoki ikki tilda yozilgan she'rlar saralab olingan.

Har bir manba ortida muallif xizmatidan tashqari, kotiblar mehnati turadi. Yozma manbalar aynan shunday kishilar mehnati evaziga bizgacha yetib kelgan. Ammo har bir ishda ma'lum darajada kamchilik bo'lishi tabiiy hol. Ayrim asarlarni ko'chirish asnosida kamchiliklarga yo'l qo'yilgan holatlar ham kuzatiladi. Buning barobarida, kamchiligi bor nusxalarga tuzatishlar kiritgan kishilarning ishi tahsinga loyiq.

Majmua (to'plam) asarlarining ayrimlari turli mavzularda yozilgan risolalardan iborat. Ularning bir qismi 10-20 tadan ko'p asarni o'z ichiga qamrab olgan. Ammo ularning tarkibidagi risolalar nomi, muallifi, ko'chirilgan yilini aniqlash oson kechmaydi. Chunki ayrim to'plamlardagi matnlar bo'yalib ketgan, betlari yirtilgan yoki mog'or bosgan bo'ladi. Uning ichidagi har bir risola turli xat yoki turli qog'ozda ko'chirilgani ham ko'zga tashlanadi. Majmualar tarkibidagi asarlar ayrim paytda e'tibordan chetda qolib ketmoqda. Holbuki, ular tarkibida noyob risolalar jamlanadi.

Har bir qo'lyozma asar tamaddunimiz tamal toshidek xizmat qilib kelmoqda. Boshqacha qilib aytganda, qadimiy yozma manbalar bizning shonli tariximiz pasporti hisoblanadi. Shuning uchun ularni asrab-avaylash, yo'qolishdan saqlash nafaqat soha mutaxassislari, balki butun jamoatchilikning muhim ishiga aylanishi lozim.

## Qadriyat

**Shu kunlarda maktab o'quvchilari o'rtasida "Milliy sport turlari va xalq o'yinlari" sport tadbirlari o'tkazilyapti. Tadbirlarga Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati Markaziy kengashi tomonidan start berildi.**



*Hakim Yo'ldoshev olgan surat.*

Bu davlatimiz rahbari 2022-yil 25-may kuni imzolagan "Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror va u bilan tasdiqlangan etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi amalda o'z ifodasini topayotganidan dalolat. Zero, mazkur dastur "Yo'l xaritasi"ga ko'ra, 2023-yildan boshlab yurtimizda etnosport turlari bo'yicha uch bosqichli musobaqalar, "Uzbekistan Ethno Games" respublika festivali, Xiva shahrida har ikki yilda bir marotaba "Xalqaro etnosport festivali" va "Polvonlar sulolasi" kabi tanlovlarni tashkil etish, shuningdek, milliy sport turlari va xalq o'yinlarini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish bo'yicha qator vazifalar belgilangan.

# Xalq o'yinlari millatimizga yot bo'lib qolmasin



Umumta'lim maktablarida o'tkazilayotgan sport tadbirlari videotasvirga olinib, tegishli manzilga yuboriladi. Jamlangan videoroliklardan eng qiziqarli milliy xalq o'yinlari saralab olinib, maktab, tuman (shahar), viloyat hamda respublika bosqichlari tashkil etiladi. Navro'z umumxalq bayrami tadbirlarida eng yaxshi xalq o'yinlaridan foydalanish esa uning nufuzini yanada oshirishi tabiiy. Shuningdek, bu o'quvchi yoshlar orasida etnosport turlari ommaviyligini ta'minlash barobarida ularda davlat tadbirlarida ishtirok etish uchun milliy o'yinlarimizni o'rganishga qiziqish uyg'otadi. Aslini olganda ham "Milliy xalq o'yinlari — milliy g'urur" kabi go'zal nomlar berilayotgan tanlovlar yosh avlodda chinakamiga milliy g'ururni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Maktab darsliklarida xalq o'yinlari haqida so'z yuritilganda, o'qituvchilarning buni o'quvchilarga tushuntira bilish mahorati muhim o'rin tutadi. O'qituvchi darslikdan tashqari biroz izlansa, "Alpomish" dostonidan xalq o'yinlarini o'rganishda muhim manba sifatida foydalana olish kerakligini anglab yetadi. Dostonda kurash, ot poyga, uloq, nayza sanchish, kamondan o'q otish, qilichbozlik, merganlik kabi o'yinlar negizida jasurlik, jangovarlik, oriyatlilik, matonat, ma'naviy va jismoniy komillik bilan bog'liq fazilatlarni tarbiyalash bo'yicha xalq tajribasi aks etganini yaqqol ko'ra oladigan o'qituvchilar talaygina. Ular Amir Temurning har tomonlama kamol topishida o'yinlar katta rol o'ynaganini qiziqarli tarzda bolalarga yetkazsa, nur ustiga nur bo'ladi. Amir Temur bolalikdan kurash, ot o'yinlari, chavandozlik, nayzabozlik, tosh ko'tarish, uzoqqa chopish kabi musobaqalarda qatnashib, chiniqqani, bu o'yin-mashqlar keyinchalik Sohibqironga juda asqatgani, xususan, qo'shin harbiy tayyorgarligida qo'l kelganini, ayniqsa, o'g'il bolalar yaxshi bilishi kerak.

Mavzuga doir manbalarni to'plagan o'qituvchi Navoiyning inson salomatligi uchun jismoniy madaniyat, badantarbiya va xalq o'yinlari qanchalik zarurligi haqidagi fikrlarini ham misollar bilan asoslab beradi. Masalan, Farhod bolaligidan harbiy mashqlarning hammasi bilan qiziqib shug'ullanganiyu nishonga aniq tekkizish, ya'ni tiyrandozlik, nayzabozlik, qalqonbozlik kabi mashq turlarida barchani hayratga solgani o'quvchini ham qiziqtirishi kerak.

Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining bosh qahramoni ham yoshligida tinmay ot ustida o'tirib, mashqlar qilganini aytadi. Alloma bir g'azalida hatto xalqning azaliy "Qovoq" o'yinini ta'riflagani o'quvchida uning g'azallariga qiziqish uyg'otadi. Osmonga otilgan yoxud balandga osib qo'yilgan qovoqqa o'q uzgan, mo'ljalga tekkiza olgan merganlarni buyuk shoir ham olqishlaydi. Ularning mahoratiga qoyil qolgan quyosh ham o'zini o'sha qovoq o'rniga qo'yishga tayyorligini badiiy ifoda qiladi. Darslarda bu kabi o'yinlar chamalash, masofadan turib aniq nishonga olish qobiliyatini tarbiyalashga yordam bergani holda, yaqin-yaqinlargacha o'zimizda mavjud bo'lgan, hozirda juda kamayib ketgan o'yinlar haqida aytilib, bolalar bilan ayrimlari bajarib ko'rilsa, ular ham xalq o'yinlariga bir oz ko'ngil burarmidi? To'g'ri, bugungi bolalarni o'ziga rom etgan telefon, kompyuterlar bu borada to'siq bo'lishi aniq. Lekin qanday milliy o'yinlarimiz bo'lgani va hozir ham qaysidir hududlarda saqlanib, o'ynab kelinayotgani haqida farzandlarimiz bilishi kerak-ku?!

Xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy o'yinlari ko'p. "Ko'zboylog'ich", "To'ptosh", "Berkinmachoq", "Xola-xola", "Kim topag'on" kabi nomlarni uzoq davom ettirish mumkinligi quvonarli. Faqat ularni bolalarimizga eshittirib sanasak, kerak bo'lsa, birga o'ynab tursak, qani edi...

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining aksariyatida milliy o'yinlar o'ynatilmaydi. Ayniqsa, nodavlat MTTlarda ba'zi tarbiyachilar bolalar miriqib ko'radigan (aslida, tarbiyaviy ahamiyati past bo'lgan) 1-2 ta xorij multfilmlarini qo'yib berish bilan vaqt o'tkazayotgani sir emas.

Buni bejiz aytayotganimiz yo'q. Ko'plab ota-onalardan "Bolangiz bog'chada qanday milliy o'yinlarni o'ynar ekan, hech qiziqqanmisiz?", deb so'raganimizda, deyarli barchasi bu haqda bilmas-



ligi, bolasi bog'chada ham, uyda ham multfilm ko'rishini aytadi. Vaholanki, bola taqlidchi bo'ladi, bog'chada o'ynagan o'yinini uyda ham akasi yoki ukasi, singlisi bilan o'ynagisi keladi. Nega bolalarimiz "Berkinmachoq", "Ko'zboylog'ich", "Oq terakmi, ko'k terak" o'ynamayapti? Ko'p qavatli uylar oldida chug'urlab yurgan bolalar oldiga borsangiz, qo'llarida telefon, nimalarnidir muhokama qilgan, bahslashgan bo'lib chiqadi. Eh, qani edi, telefonlarga ham folklorshunos Shomirza Turdimov aytganidek, milliy o'yinlarimiz joylashtirilsa... Farzandlarimizning fikru hayolini band etayotgan jangari o'yinlar o'rnini ular egallasa...

Bolalarimiz milliy o'yinlarimizni bilishi, ularni o'ynashga qiziqishi uchun xalq o'yinlariga hurmatni, avvalo, oiladan, bog'chadan, maktabdan va milliy bayramlarimizdan boshlashimiz kerak. Bolalar telekanallarida milliy o'yinlarimiz haqida turkum ko'rsatuvlar tayyorlab, namoyish etib borishimiz lozim. Zero, har qanday voqelik tasvir orqali ongga tezroq yetib boradi. O'ylaymizki, bu va yuqorida sanalgan takliflar yuzasidan mutasaddilar tegishli xulosalarni chiqarib oladi.

Biz esa keyingi maqolalarimizda milliy o'yinlarimizni xalq orasida yurib, fidoyilarcha yozib olgan, to'plamlar qilgan folklorshunoslar, ularning bu jarayonlardagi jonbozliklari haqida ma'lumot berishni dilga tugdik.

**Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri**

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 256.
8848 nusxada bosildi.
**Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33  Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98  E-mail: info@yuz.uz  Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O'zA yakuni — 22:00  Topshirildi — 22:05